NATIONAL QUALITY ASSURANCE AGENCY FOR EDUCATION

NQAAE

UNDER THE ADMINISTRATION OF THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

UMUMMILLIY SO'ROVNOMA

Ochiq fikr — kuchli ta'lim!

TEXNIKUMLARDA

TA'LIM MUHITI, O'QUV JARAYONI VA FAOLIYAT YURITISH SHART-SHAROITLARI SIFATI



TEXNIKUMLARDA TA’LIM MUHITI, O‘QUV JARAYONI VA FAOLIYAT YURITISH SHART-SHAROITLARI SIFATI

(o‘quvchilar va pedagoglar o‘rtasida o‘tkazilgan umummilliy sotsiologik tadqiqot natijalari)

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

I. KIRISH 3
1.1. Tahlilning dolzarbligi 3
1.2. Tadqiqot maqsadi va qamrovi 4
1.3. Asosiy natijalarning qisqacha mazmuni 5
II. METODOLOGIK YONDASHUV VA ASOSIY TUSHUNCHALAR 7
2.1. Ma'lumotlar manbai va tahlil qamrovi 7
2.2. Respondentlar tarkibi va asosiy tushunchalar 7
2.3. So'rovnoma tuzilishi va baholash yo'nalishlari 8
2.4. Asosiy tushunchalar va hisoblash yondashuvi 10
2.5. Natijalarni toifalash va dastlabki baholash mezonlari 11
2.6. Ochiq javoblar va ma'lumotlar sifatini tekshirish 12
III. TEXNIKUMLARDA TA'LIM MUHITI VA FAOLIYAT SHAROITLARINING TARKIBIY TAHLILI 14
3.1. Texnikum o'quvchilarining so'rovnomadagi ishtiroki 14
3.2. Texnikum pedagoglarining so'rovnomadagi ishtiroki 16
3.3. Umumiy ishtirokchilar tahlili 19
3.4. Hududlarni natija darajasi bo'yicha guruhlash 20
3.5. Ta'lim sifati va o'quv jarayoni bo'yicha natijalar 22
3.6. Ta'lim resurslari va infratuzilma tahlili 25
3.7. Ta'lim tizimida qo'shimcha imkoniyatlar tahlili 27
3.8. O'quvchilarning ochiq javoblari tahlili 31
3.9. Texnikum o'qituvchilari nazarida ta'lim jarayoni va shart-sharoitlar 32
3.10. Pedagoglar bahosida kasbiy tayyorgarlik sifati va ta'limni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari 33
3.11. Pedagoglarning ochiq javoblari tahlili 36
3.12. Pearson dasturlari joriy etilgan va boshqa texnikumlarda ta'lim sifatining qiyosiy tahlili 38
3.13. Xalqaro tajriba: Germaniya, Shveysariya, Finlandiya, Singapur va Avstraliya 41
IV. ASOSIY XULOSALAR VA TIZIMLI MUAMMOLAR 46
V. AMALIY TAKLIF VA TAVSIYALAR 48
VI. YAKUNIY XULOSA 53
VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR 54

I. KIRISH

1.1. Tahlilning dolzarbligi

Texnikumlarda o‘tkazilgan 2026-yilgi umummilliy so‘rovnoma ta’lim muhiti, o‘quv jarayoni va faoliyat yuritish shart-sharoitlari bo‘yicha hududlar hamda ta’lim tashkilotlari o‘rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko‘rsatdi. Natijalar texnikumlarni kasbiy tayyorgarlik sifati, resurslar bilan ta’minlash va ish beruvchilar bilan hamkorlik yo‘nalishlarida manzilli rivojlantirish zaruratini belgilaydi.

Texnikumlarda kasbiy ta’lim sifatini baholashda o‘quv dasturlarining mehnat bozori talablariga muvofiqligi, amaliy ko‘nikmalarni egallash imkoniyatlari, pedagoglarning kasbiy salohiyati hamda ustaxona va laboratoriyalar holati muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilar va pedagoglarning fikrlarini tizimli o‘rganish mavjud muammolarni aniqlashga xizmat qiladi. So‘rovnoma natijalari bitiruvchilarning bandligi va amaliy kompetensiyalariga oid ma’lumotlar bilan birgalikda talqin etilishi lozim.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) 2023-yilgi kasbiy ta’lim tizimlarini rivojlantirishga oid tadqiqotida ish joyida o‘qitish o‘quvchilarga zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash, tajribali mutaxassislardan o‘rganish va real ishlab chiqarish sharoitida kasbiy ko‘nikmalarni egallash imkonini berishi ta’kidlangan[1].

Shu nuqtayi nazardan, texnikumlarda amaliy tayyorgarlik sifatini baholashda o‘quvchilarning korxonalarda amaliyot o‘tashi bilan cheklanmasdan, ularning kasbga mos topshiriqlarni bajarishi va egallagan kompetensiyalarini amalda namoyish eta olishini ham inobatga olish muhim ahamiyatga ega.

Texnikumlarda o‘quvchilar va pedagoglarning fikrini tizimli o‘rganish, umumiy baholar ortida qolayotgan muammolarni aniqlash hamda ularni muassasa kesimida tahlil qilish alohida dolzarblik kasb etadi. So‘rovnoma natijalarini amaliy ko‘nikmalarni baholash, jihozlardan foydalanish, bitiruvchilarning bandligiga oid ma’lumotlarni o‘rganish texnikumlarni rivojlantirish bo‘yicha umumiy emas, balki aniq ehtiyojlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.


[1] Organisation for Economic Co-operation and Development)
URL: https://www.oecd.org/en/publications/building-future-ready-vocational-education-and-training-systems_28551a79-en/full-report/component (16.06.2026)

1.2. Tadqiqot maqsadi va qamrovi

Tadqiqotning maqsadi texnikumlarda ta’lim muhiti, o‘quv jarayoni, o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarligi hamda pedagoglarning faoliyat sharoitlarini respondentlar baholari asosida tahlil qilish, hududiy va sohaviy tafovutlarni aniqlash hamda amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

So‘rovnoma 2026-yil 21-martdan 9-aprelga qadar respublikaning barcha **14 ta** hududidagi **657 ta** texnikumda o‘tkazilgan. Unda **327 249 nafar** respondent, jumladan **301 600 nafar** o‘quvchi va **25 649 nafar** pedagog ishtirok etgan.

So‘rovnoma o‘zbek, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida tashkil etildi.



1-rasm. Tadqiqot metodologiyasi bo‘yicha umumiy ma’lumot.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Tadqiqot obyekti texnikumlarda ta’lim olayotgan o‘quvchilar va faoliyat yuritayotgan pedagoglardan iborat. Tadqiqot predmeti ta’lim jarayonini tashkil etish, kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish, pedagogik faoliyat, resurslar, raqamli imkoniyatlar va o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash sharoitlarini qamrab oladi.

Tahlil doirasida respondentlarning ta’lim muhiti va o‘quv jarayonidan qoniqishi, ijtimoiy-psixologik sharoitlar, pedagoglarning kasbiy faoliyati, raqamli vositalardan foydalanish hamda texnikumlarning rivojlanish ehtiyojlari o‘rganildi. Natijalardan ta’lim sifatini monitoring qilish, qayta aloqa mexanizmini takomillashtirish va resurslarni ustuvor muammolarga yo‘naltirishda foydalanish ko‘zda tutiladi.

Natijalar tavsifiy statistika, ijobiy javoblar ulushini hisoblash, shuningdek, hududlar, texnikumlar va ixtisoslashuv sohalari kesimidagi qiyosiy tahlil asosida baholandi. O‘quvchilar va pedagoglarning ochiq javoblari alohida mazmuniy tahlil qilinib, ularda qayd etilgan taklif, shikoyat va ustuvor ehtiyojlar tizimlashtirildi.

Tadqiqot natijalari texnikumlarda ta’lim sifatini oshirish, past natija qayd etgan tashkilotlar uchun manzilli rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish, resurslarni samarali taqsimlash, o‘quv dasturlarini takomillashtirish hamda dalillarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun empirik asos bo‘lib xizmat qiladi.

1.3. Asosiy natijalarning qisqacha mazmuni

Tadqiqot natijalari **texnikumlardagi ta’lim sifati o‘quvchilar tomonidan umumiy jihatdan ijobiy baholanganini** ko‘rsatdi. Xususan, respondent o‘quvchilarning **78 foizi** ta’lim sifatiga yuqori baho bergan.

Shu bilan birga, alohida yo‘nalishlar bo‘yicha bildirilgan fikrlar **umumiy qoniqish darajasi kasbiy tayyorgarlik uchun yaratilgan barcha sharoitlar bir xil darajada rivojlanganini anglatmasligini** ko‘rsatmoqda.

Hududlar kesimida ta’lim sifatiga yuqori baho bergan o‘quvchilar ulushi **72,7 foizdan 83 foizgacha** o‘zgargan. Eng yuqori va eng past hududiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi **10,3 foiz** farq ta’lim jarayoniga berilgan baholarda **hududiy tafovutlar mavjudligini** ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, alohida texnikumlar kesimidagi natijalar ularning **amaliy mashg‘ulotlar va moddiy-texnik ta’minot bilan bog‘liq ehtiyojlarini** hududiy o‘rtacha ko‘rsatkichlar asosidagina baholash yetarli emasligini anglatadi.

Amaliy tayyorgarlik tadqiqotda alohida e’tibor talab etadigan yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘ldi. O‘quvchilarning **29,3 foizi** amaliy mashg‘ulotlar hajmi yetarli emasligini qayd etgan. Bundan tashqari, respondentlarning **3,2 foizi** amaliy mashg‘ulotlar **faqat hujjatlarda aks etishini** bildirgan.

Ushbu natijalar amaliyotning belgilangan hajmda tashkil etilishi bilan birga, **uning amalda o‘tkazilishi va o‘quvchilarning kasbiy ko‘nikmalarni egallashiga xizmat qilishini ham nazorat qilish zarurligini** ko‘rsatadi.

Texnikumlarning **moddiy-texnik ta’minoti** bo‘yicha o‘quvchilarning **33,3 foizi uskunalar eskirganini** bildirgan.

Jihozlarning holatiga qarab ta’lim sifatiga berilgan baholar ham farqlangan: zamonaviy uskunalar yetarli deb baholangan sharoitda yuqori baholar ulushi **88,4 foizni**, uskunalar eskirgan sharoitda **69,2 foizni**, jihozlar yetishmaydigan yoki ishlamaydigan sharoitda esa **37,9 foizni** tashkil etgan.

Bu natijalar **moddiy-texnik sharoitlar va ta’lim sifatiga berilgan baholar o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligini** ko‘rsatadi, biroq jihozlarning holati baholardagi farqning yagona sababi ekanini anglatmaydi.

Ishlab chiqarish amaliyoti bo‘yicha olingan javoblar o‘quvchilarni korxonalarga biriktirishning o‘zi yetarli emasligini ko‘rsatdi.

Xususan, pedagoglarning **44,9 foizi ish beruvchilar o‘quvchilardan faqat yordamchi sifatida foydalanishini** qayd etgan. Bu esa ishlab chiqarish amaliyotida **o‘quvchilarga mutaxassisligiga mos vazifalar berilishi, ularga ustozlik qilinishi va egallangan ko‘nikmalar baholanishiga e’tiborni kuchaytirish zarurligini** ko‘rsatadi.

Pedagoglar faoliyati bilan bog‘liq natijalar ham qator tashkiliy masalalarni aniqlash imkonini berdi.

Jumladan, pedagoglarning **52,2 foizi ortiqcha hujjatbozlikni ish faoliyatidagi asosiy muammo sifatida** qayd etgan. So‘nggi ikki yil davomida ishlab chiqarish korxonalarida stajirovka o‘taganini aniq tasdiqlagan pedagoglar ulushi esa **25 foizni** tashkil etgan.

Mazkur natijalar **pedagoglarning kasbiy tajribasini yangilash imkoniyatlarini kengaytirish va ularning vaqtini bevosita ta’lim jarayoniga yo‘naltirish** masalalarini o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Bitiruvchilarning kelgusidagi bandligiga oid kutilmalar tahlilida o‘quvchilarning **56,6 foizi** o‘qishni tugatgach ish topishiga to‘liq ishonishini, **31,4 foizi** esa muayyan qiyinchiliklar bilan bo‘lsa-da, ish topishini kutayotganini bildirgan.

Ushbu ko‘rsatkichlar **o‘quvchilarning shaxsiy kutilmalarini aks ettiradi va ularni bitiruvchilarning amaldagi bandlik darajasi sifatida talqin qilish mumkin emas.**

Umuman olganda, umummilliy so‘rovnoma texnikumlarda ta’lim sifatiga berilgan umumiy ijobiy baholar bilan bir qatorda, **amaliy mashg‘ulotlar hajmi va mazmuni, jihozlarning holati, ishlab chiqarish amaliyotining natijadorligi hamda pedagoglarning kasbiy rivojlanishi bilan bog‘liq masalalar mavjudligini** ko‘rsatdi.

Aniqlangan muammolarni **texnikumlar va kasbiy yo‘nalishlar kesimida chuqur o‘rganish, resurslarni real ehtiyojlarga muvofiq taqsimlash hamda ish beruvchilar bilan hamkorlikning amaliy natijalarini baholash** kasbiy ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan keyingi chora-tadbirlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

II. METODOLOGIK YONDASHUV VA ASOSIY TUSHUNCHALAR

2.1. Ma’lumotlar manbai va tahlil qamrovi

Mazkur tahlilning asosiy empirik ma’lumotlar manbai sifatida **2026-yil 21-martdan 9-aprelga qadar** texnikum o‘quvchilari va pedagoglari o‘rtasida o‘tkazilgan Umummilliy so‘rovnoma natijalaridan foydalanildi.

Tadqiqot respublikaning barcha **14 ta** hududidagi **657 ta** texnikumni qamrab oldi. So‘rovnomada jami **327 249 nafar** respondent, jumladan, **301 600 nafar o‘quvchi** va **25 649 nafar pedagog** ishtirok etdi. So‘rovnoma o‘zbek, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida tashkil etilib, respondentlarga o‘z fikrlarini qulay tilda bildirish imkoniyati yaratildi.

2.2. Respondentlar tarkibi va asosiy tushunchalar

Tadqiqotda ikki asosiy respondentlar guruhi – texnikum o‘quvchilari va pedagoglar qamrab olindi.

O‘quvchilar ta’lim jarayoni va kasbiy tayyorgarlik uchun yaratilgan sharoitlarni bevosita foydalanuvchi sifatida, pedagoglar esa o‘quv jarayonini tashkil etish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda ishtirok etuvchi mutaxassis sifatida baholadi. Mazkur yondashuv ta’lim sifati va mavjud muammolarni ikki guruh nuqtayi nazaridan o‘rganish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarini talqin qilishda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalanildi.

O‘quvchi-respondent – tadqiqot o‘tkazilgan davrda texnikumda ta’lim olayotgan va so‘rovnoma savollariga javob bergan shaxs.

Pedagog-respondent – texnikumda pedagogik faoliyat yuritayotgan hamda o‘quv jarayoni, amaliy tayyorgarlik yoki o‘z mehnat sharoitlariga oid so‘rovnoma savollariga javob bergan xodim.

Texnikum – o‘quvchilarga tanlangan kasb va mutaxassislik bo‘yicha nazariy bilim hamda amaliy ko‘nikmalarni egallash imkonini beruvchi professional ta’lim tashkiloti.

Ijobiy javoblar ulushi – muayyan savol bo‘yicha ijobiy mazmundagi javob variantlarini tanlagan respondentlarning ushbu savolga yaroqli javob bergan respondentlar umumiy soniga nisbatan foizdagi ulushi. Ijobiy deb hisoblanadigan variantlar har bir savolning mazmuniga qarab belgilanadi.

Amaliy tayyorgarlik – oʻquvchilarning ustaxona, laboratoriya yoki ishlab chiqarish sharoitida kasbga oid vazifalarni bajarish orqali bilim va koʻnikmalarni egallash jarayoni.

Ishlab chiqarish amaliyoti – oʻquvchilarning korxona yoki tashkilot faoliyati bilan tanishishi, mutaxassisligiga mos amaliy topshiriqlarni bajarishi va kasbiy tajriba orttirishiga qaratilgan oʻquv jarayoni.

Moddiy-texnik ta’minot – kasbiy ta’limni tashkil etish uchun zarur boʻlgan ustaxona va laboratoriyalar, uskunalar, asboblar, sarf materiallari hamda boshqa oʻquv resurslarining mavjudligi va ulardan foydalanish holati.

Hududiy koʻrsatkich – hududdagi texnikumlar respondentlarining tegishli savolga bergan javoblari asosida shakllantirilgan natija.

Institutsional koʻrsatkich – alohida texnikum respondentlarining javoblari asosida ushbu ta’lim tashkiloti uchun hisoblangan natija.

Sohaviy koʻrsatkich – texnikumlarda oʻqitiladigan kasb va mutaxassisliklarning iqtisodiyot tarmoqlariga mansubligi boʻyicha guruhlangan javoblar natijasi.

Ochiq javob – respondentning belgilangan variantlar bilan cheklanmasdan, muammo, ehtiyoj yoki taklifini erkin matnda bayon etishi.

Mazkur tushunchalar soʻrovnoma natijalarini yagona yondashuv asosida talqin qilish, oʻquvchilar va pedagoglar fikrlarini qiyoslash hamda hududlar va texnikumlar kesimida mavjud farqlarni aniqlash uchun qoʻllanildi.

2.3. Soʻrovnoma tuzilishi va baholash yoʻnalishlari

Soʻrovnoma yopiq va ochiq turdagi savollardan tashkil topdi. Yopiq savollar orqali texnikumlardagi ta’lim jarayoni va kasbiy tayyorgarlik sharoitlariga berilgan baholar miqdoriy jihatdan oʻrganildi. Ochiq savollar esa respondentlarning mavjud muammolar va ularni bartaraf etish boʻyicha fikrlarini aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqot savollari mazmunan quyidagi asosiy yoʻnalishlar boʻyicha tahlil qilindi.

1-yoʻnalish – ta’lim sifati va oʻquv jarayoni.

Oʻquvchilarning texnikumdagi ta’lim sifatiga bergan umumiy baholari, nazariy bilimlar va amaliy mashgʻulotlar oʻrtasidagi uygʻunlik, amaliyotning yetarliligi hamda oʻquv jarayonini tashkil etish bilan bogʻliq masalalar oʻrganildi.

2-yo‘nalish – amaliy mashg‘ulotlar va moddiy-texnik ta’minot.

Ustaxona va laboratoriyalardagi uskunalarning mavjudligi, zamonaviyligi va ishlash holati, amaliy mashg‘ulotlarning tashkil etilishi, zarur asbob-uskunalar va sarf materiallari bilan ta’minlanganlik hamda ushbu sharoitlarning ta’lim sifatiga berilgan baholar bilan bog‘liqligi tahlil qilindi.

3-yo‘nalish – ishlab chiqarish amaliyoti va ish beruvchilar bilan hamkorlik.

O‘quvchilarning korxonalarda amaliyot o‘tashi, ularga kasbiga mos vazifalar berilishi, ustozlik faoliyati, amaliyot jarayonida egallangan ko‘nikmalar, ish beruvchilarning o‘quvchilarni o‘qitishdagi ishtiroki o‘rganildi.

4-yo‘nalish – kasbiy tayyorgarlik va bandlikka oid kutilmalar.

O‘quvchilarning kelgusida ishga joylashishiga bo‘lgan ishonchi, ish topishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar haqidagi fikrlari va kasbiy tayyorgarlikning mehnat faoliyati bilan bog‘liq jihatlari tahlil qilindi. Bunda respondentlarning bandlikka oid kutilmalari bitiruvchilarning amaldagi ishga joylashish ko‘rsatkichlaridan alohida talqin qilindi.

5-yo‘nalish – zamonaviy va raqamli texnologiyalardan foydalanish.

Kasbiy ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish va ayrim ta’lim dasturlarida xalqaro yondashuvlarni qo‘llash bilan bog‘liq savollar natijalari o‘rganildi.

6-yo‘nalish – pedagoglarning mehnat sharoitlari va kasbiy rivojlanishi.

Pedagoglarning o‘quv jarayonini tashkil etishdagi qiyinchiliklari, hujjatbozlik bilan bog‘liq ish yuklamasi, ishlab chiqarish korxonalarida stajirovka o‘tash imkoniyatlari, amaliy tajribasini yangilash va ish beruvchilar bilan hamkorlikka oid fikrlari tahlil qilindi.

7-yo‘nalish – ochiq fikr va takliflar.

Respondentlarning texnikumlardagi ta’lim sifati, amaliy mashg‘ulotlar, moddiy-texnik sharoitlar va kasbiy tayyorgarlikni yaxshilashga doir erkin fikrlari mazmunan o‘rganildi.

O‘quvchilar va pedagoglar uchun savollar ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni va tajribasiga muvofiq shakllantirilgan. Mazmunan yaqin savollar mavjud bo‘lgan hollarda ikki guruhning baholari qiyoslandi. Bunda savol matni, javob variantlari yoki respondentlar tarkibi farq qiladigan ko‘rsatkichlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri bir xil o‘lchov sifatida talqin qilinmadi.

2.4. Asosiy tushunchalar va hisoblash yondashuvi

Tahlil jarayonida ma’lumotlarni tizimlashtirish, guruhlash, tavsifiy statistika, ijobiy javoblar ulushini hisoblash, qiyosiy tahlil, mazmuniy tahlil va statistik umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Birlamchi bosqichda har bir savol bo‘yicha javoblar soni va ularning foizdagi ulushi hisoblandi. Foiz ko‘rsatkichini aniqlashda quyidagi umumiy yondashuv qo‘llanildi:

$$\mathbf{P = N_i / N \times 100}$$

bunda:

P – muayyan javob varianti yoki ijobiy javoblar ulushi;

N_i – tegishli javob variantini tanlagan respondentlar soni;

N – savolga yaroqli javob bergan respondentlarning umumiy soni.

Ijobiy javoblar ulushini hisoblashda savol mazmuniga muvofiq yuqori baho yoki qoniqishni ifodalovchi javob variantlari umumlashtirildi. Amaliy mashg‘ulotlar yetishmasligi, uskunalarning eskirganligi va boshqa muammolarga oid javoblar esa alohida ko‘rsatkichlar sifatida tahlil qilindi.

Natijalar respublika, hududlar va alohida texnikumlar kesimida, shuningdek, o‘quvchilar va pedagoglar guruhlari bo‘yicha o‘rganildi. Qiyosiy tahlilda eng yuqori va eng past foiz ko‘rsatkichlari hamda ular o‘rtasidagi foiz punktlaridagi farqlar hisobga olindi.

Ochiq javoblar mazmuniga ko‘ra guruhlanib, takrorlanuvchi muammolar va takliflar aniqlandi. So‘rovnoma natijalari respondentlarning fikr va baholarini aks ettirishi inobatga olinib, bandlikka oid kutilmalar bitiruvchilarning amaldagi ishga joylashish ko‘rsatkichlaridan alohida talqin qilindi.

Ijobiy javoblar ulushi muayyan savol bo‘yicha ijobiy mazmundagi javoblarni tanlagan respondentlar sonining shu savolga yaroqli javob berganlar soniga nisbatidir.

Salbiy javoblar ulushi shu tartibda salbiy mazmundagi javoblar uchun hisoblanadi.

Neytral yoki qisman ijobiy javoblar alohida toifaga ajratilgan bo‘lsa, ijobiy va salbiy ulushlar yig‘indisi **100 foizga** teng bo‘lishi shart emas.

Hududiy koʻrsatkich hudud boʻyicha, institutsional koʻrsatkich alohida texnikum boʻyicha, sohaviy koʻrsatkich esa tegishli ta’lim yoʻnalishlari guruhi boʻyicha umumlashtirilgan natijani bildiradi.

Ball va foiz bir xil oʻlchov sifatida qoʻllanmaydi; ular tegishli hisoblash usuliga muvofiq farqlanadi.

2.5. Natijalarni toifalash va dastlabki baholash mezonlari

Tadqiqot natijalarini tizimli talqin qilish maqsadida **100 ballik** koʻrsatkichda shakllangan natija darajalari boʻyicha toifalarga ajratildi.

Bunda:

80 ball va undan yuqori natija – yuqori daraja;

70 balldan 80 ballgacha – barqaror daraja;

60 balldan 70 ballgacha – oʻrtacha daraja;

50 balldan 60 ballgacha – past daraja;

50 balldan past natija – juda past daraja sifatida talqin qilindi.

Yuqori darajadagi natija tegishli yoʻnalishda ijobiy amaliyotlar va barqaror institutsional salohiyat shakllanganini ifodalaydi.

Barqaror daraja asosiy jarayonlar qoniqarli tashkil etilganini, biroq ayrim rivojlanish zaxiralari mavjudligini koʻrsatadi.

Oʻrtacha daraja muayyan yoʻnalishda ijobiy natijalar bilan bir qatorda sezilarli kamchiliklar ham mavjudligini anglatadi.

Past va juda past natijalar esa tizimli muammolar saqlanib qolayotgani hamda manzilli rivojlantirish choralari zarurligini koʻrsatadi.

Toifalash natijalari hudud yoki texnikum faoliyatiga yakuniy huquqiy yoki ma’muriy baho berish uchun emas, balki mavjud holatni diagnostika qilish, nisbatan kuchli va zaif yoʻnalishlarni aniqlash hamda resurslarni ustuvor vazifalarga yoʻnaltirish uchun qoʻllanildi.


Ta’lim sifatiga oid koʻrsatkichlarni talqin qilishda faqat umumiy oʻrtacha natijalar bilan cheklanilmadi. Bir xil oʻrtacha ball ortida turli hududlar, texnikumlar yoki baholash komponentlari boʻyicha sezilarli farqlar mavjud boʻlishi mumkinligi inobatga olindi. Shu bois har bir tematik koʻrsatkich uning tarkibiy qismlari va qiyosiy konteksti bilan birgalikda tahlil qilindi.

2.6. Ochiq javoblar va ma’lumotlar sifatini tekshirish

So‘rovnomaning ochiq savollari o‘quvchilar va pedagoglarning oldindan belgilangan javob variantlari bilan cheklanmagan fikrlarini o‘rganishga xizmat qildi. Ochiq javoblar mazmuniy jihatdan o‘rganilib, taklif va shikoyatlarga ajratildi hamda takrorlanuvchi mavzular bo‘yicha guruhlandi.

O‘quvchilarning ochiq javoblarini tahlil qilishda Google Docs orqali shakllantirilgan ma’lumotlar bazasidan foydalanildi. Tegishli savol bo‘yicha jami **301 600 nafar** o‘quvchining ma’lumotlari qayd etilgan. Shundan **48 256 nafar** o‘quvchi ushbu savolga javob bermagan.

Taqdim etilgan javoblarning **253 344 tasi mazmunli** deb topildi. Shundan **232 800 tasi takliflar**, **1 337 tasi esa shikoyatlarga** toifalandi.



2-rasm. O‘quvchilarning ochiq javoblari tahlili.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

O‘quvchilarning ochiq javoblari texnikumlarda **o‘quv jarayoni va kasbiy ta’lim dasturlarini takomillashtirish**, **ishlab chiqarish amaliyotini kengaytirish**, **bino va infratuzilmani yaxshilash**, **ustaxona va laboratoriyalarni zamonaviy jihozlar bilan ta’minlash**, **pedagog kadrlar faoliyati**, **imtihon va baholash tizimi**, **sport va ovqatlanish sharoitlari**, **kasbiy to‘garaklar** hamda **bitiruvchilarni ishga joylashtirishga ko‘maklashish** kabi asosiy mavzular bo‘yicha guruhlandi.

Pedagoglarning ochiq javoblari ham **19 799 ta** taklif va **1 746 ta** shikoyatlarga ajratilib, **moddiy rag‘batlantirish**, **o‘quv ustaxonalari va laboratoriyalarning moddiy-texnik ta’minoti**, **ishlab chiqarish korxonalarida stajirovka o‘tash**, **malaka oshirish**, **darslik va kasbiy o‘quv adabiyotlari**, **o‘quv dasturlarining mehnat bozori talablariga muvofiqligi** hamda **ish beruvchilar bilan hamkorlik** kabi yo‘nalishlarga ajratildi.

Ayrim ochiq javoblarda bir vaqtning o‘zida bir nechta masala ko‘tarilgani sababli ular tegishli mavzular bo‘yicha alohida guruhlandi. Shu bois mavzular kesimida hisoblangan ulushlar yig‘indisi **100 foizga** teng bo‘lmasligi mumkin.

Mazkur yondashuv respondentlar bildirgan fikrlarning mazmunini to‘liqroq aks ettirish va o‘zaro bog‘liq muammolarni aniqlash imkonini beradi.

Ochiq javoblar natijalari yopiq savollar bo‘yicha shakllangan miqdoriy ko‘rsatkichlarni izohlash, kasbiy tayyorgarlik va ta’lim sharoitlaridagi muammolarni aniqlashtirish hamda texnikumlar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan amaliy takliflarni ishlab chiqishda qo‘llanildi.

II bob bo‘yicha xulosa

Mazkur bobda texnikumlarda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnomaning axborot va metodologik asoslari, tadqiqot qamrovi, respondentlar tarkibi, baholash yo‘nalishlari hamda ma’lumotlarni qayta ishlash va ko‘rsatkichlarni hisoblash usullari bayon etildi.

Shuningdek, o‘quvchilar va pedagoglarning ochiq javoblarini mazmunan tahlil qilish, taklif va shikoyatlarni mavzular bo‘yicha guruhlash hamda natijalarni talqin qilishda inobatga olinishi lozim bo‘lgan cheklovlar yoritildi.


Mazkur metodologik yondashuv texnikumlarda ta’lim sifati, amaliy tayyorgarlik, moddiy-texnik ta’minot va pedagoglarning faoliyat sharoitlarini tizimli o‘rganish, hududlar hamda ta’lim tashkilotlari o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlash va dalillarga asoslangan amaliy takliflarni ishlab chiqish uchun asos yaratadi.

Keyingi boblarda ushbu yondashuvlar asosida umummilliy so‘rovnoma natijalari batafsil tahlil qilinadi.

III. TEXNIKUMLARDA TA’LIM MUHITI VA FAOLIYAT SHAROITLARINING TARKIBIY TAHLILI

3.1. Texnikum o‘quvchilarining so‘rovnomadagi ishtiroki

Umummilliy so‘rovnomada Respublikaning barcha **14 ta** hududidagi **657 ta** texnikumdan **301 600 nafar** o‘quvchi ishtirok etgan.



3-rasm. Texnikumlarning mulkchilik shakli bo‘yicha tarkibi


Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Texnikumlarning **593 tasi** davlat, **50 ta** nodavlat va **14 ta** xalqaro darajada ta’lim beruvchi texnikumlar hisoblanadi.

Mazkur ma’lumotlar o‘quvchilarning kasbiy ta’lim jarayoni, amaliy tayyorgarlik va mavjud shart-sharoitlarga munosabatini hududlar kesimida o‘rganish uchun yetarli axborot bazasi shakllanganini ko‘rsatadi.

Hududlar kesimida respondentlarning eng katta ulushi **Samarqand viloyati** (13,2 foiz) va **Farg‘ona viloyati** (11,9 foiz) hissasiga to‘g‘ri keldi.

So‘rovnoma ishtirokchilarining hududiy taqsimotida **Sirdaryo viloyati** (2,4 foiz) va **Navoiy viloyati** (2,8 foiz) eng kichik ulushga ega bo‘ldi. **Toshkent shahri** (4,8 foiz) hamda **Xorazm viloyatida** (4,9 foiz) ham respondentlar ulushi nisbatan past darajada qayd etildi.



4-rasm. So‘rovnomada ishtirok etgan texnikum o‘quvchilarining hududlar kesimida taqsimlanishi, 2026-yil (nafar)

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Kurslar kesimida **1-kurs o‘quvchilari – 58,2 foiz**, **2-kurs o‘quvchilari – 35,7 foiz** bo‘lib, **3-kurs o‘quvchilari – 6,1 foizni** tashkil etdi.

Jinsiy tarkib deyarli muvozanatli bo‘lib, **ayollar – 50,3 foiz**, erkaklar – **49,7 foizni** tashkil etdi.



5-rasm. O‘quvchilarning kurslar va jins bo‘yicha tarkibi.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Ta’lim tashkilotlari kesimidagi tahlilga ko‘ra, eng yuqori ishtirok ulushi **Zomin tumani 1-son texnikumi** (0,61 foiz), **So‘zangaron jamoat salomatligi texnikumi** (0,6 foiz), **Marg‘ilon 1-son jamoat salomatligi texnikumi** (0,59 foiz), **Siyob jamoat salomatligi texnikumi** (0,57 foiz) hamda **Urgut tumani 1-son texnikumi** (0,52 foiz) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Shuningdek, **Toshkent transport texnikumi**, **Xalqaro innovatsion tibbiyot texnikumi** va **Koson tumani 2-son texnikumi** respondentlar soni bo‘yicha yuqori o‘rinlarni egalladi.

Eng ko‘p respondent qatnashgan beshta texnikumning umumiy ishtirok ulushi **2,89 foizni** tashkil etdi. Bu ishtirokchilar tarkibida ushbu texnikumlarning ustun mavqega ega emasligini ko‘rsatadi.

Yosh tarkibi tahliliga ko‘ra, respondentlarning asosiy qismini **17–18 yoshdagilar 147 728 nafar** (49 foiz) tashkil etdi. Keyingi o‘rinni **15–16 yoshdagilar 71 224 nafar** (23,6 foiz) egalladi. Ushbu ikki yosh guruhining jami respondentlar tarkibidagi ulushi **72,6 foizga** yetdi.

Shuningdek, **19–20 yoshdagilar 37 962 nafar** (12,6 foiz), **21–30 yoshdagilar 27 875 nafar** (9,2 foiz)ni tashkil etdi. **31 yosh va undan yuqori yoshdagi respondentlar 16 811 nafar** (5,6 foiz) bilan eng kam ulushga ega bo‘ldi. Mazkur taqsimot so‘rovnoma natijalarida asosan **15–18 yoshdagi o‘quvchilarning fikrlari** aks etganini ko‘rsatdi.




6-rasm. So‘rovnomada ishtirok etgan texnikum o‘quvchilarining yosh kesimida taqsimlanishi, 2026-yil (nafar).

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Texnikumlarning joylashuvi bo‘yicha **42,6 foizi tuman markazlarida, 33,6 foizi shahar** va **23,7 foizi qishloq** hududlarida joylashgan.

Mazkur taqsimot texnikumlar tarmog‘ida tuman markazlarining ulushi yuqori ekanini ko‘rsatadi.



7-rasm. Texnikumlarning joylashuv hududi bo‘yicha taqsimoti.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

3.2. Texnikum pedagoglarining so‘rovnomadagi ishtiroki


So‘rovnomada **14 ta** hududdan **25 649 nafar** pedagog ishtirok etgan.

Eng ko‘p respondent **Samarqand viloyatida 2 933 nafar** (11,4 foiz) va **Farg‘ona viloyatida 2 903 nafar** (11,3 foiz) kuzatilgan. Mazkur ikki hudud **5 836 nafar** pedagog yoki umumiy sonning **22,8 foiziga** to‘g‘ri keladi.

Qashqadaryo viloyatidan 2 477 nafar (9,7 foiz), A**ndijon viloyatidan 2 179 nafar** (8,5 foiz), **Surxondaryo viloyatidan 2 100 nafar** (8,2 foiz) va **Namangan viloyatidan 2 080 nafar** (8,1 foiz) pedagog qatnashgan. **Qoraqalpog‘iston Respublikasi**da respondentlar soni **1 787 nafarni** (7,0 foiz), **Buxoro viloyatida 1 702 nafarni** (6,6 foiz), **Toshkent viloyatida 1 665 nafarni** (6,5 foiz) tashkil etdi.

Toshkent shahridan 1 425 nafar (5,6 foiz**), Jizzax viloyatidan 1 369 nafar** (5,3 foiz), **Xorazm viloyatidan 1 347 nafar** (5,3 foiz), **Navoiy viloyatidan 969 nafar** (3,8 foiz) va **Sirdaryo viloyatidan 713 nafar** (2,8 foiz) pedagog ishtirok etdi. Demak, pedagog respondentlar tarkibida ham **Samarqand** va **Farg‘ona viloyatlari** yetakchi o‘rinni egalladi.

Qayd etish lozimki, respondent guruhlarining hududiy tarkibi bir-biridan farq qiladi. Xususan, **Samarqand viloyati**ning o‘quvchilar tarkibidagi ulushi **13,2 foizni**, pedagoglar tarkibidagi ulushi esa **11,4 foizni** tashkil etgan bo‘lsa, **Surxondaryo viloyatida** mazkur ko‘rsatkichlar tegishlicha **7,2** va **8,2 foiz**ga teng.



8-rasm. So‘rovnomada ishtirok etgan texnikum pedagoglarining hududlar kesimida taqsimlanishi, 2026-yil (nafar)

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Tahlilga ko‘ra, pedagoglarning eng yuqori ishtirok ulushi **Respublika musiqa va san’at texnikumi** (0,81 foiz), **G‘uzor tumani 1-son texnikumi** (0,62 foiz) va **Bag‘dod tumani 2-son texnikumi** (0,60 foiz) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Beshariq tumani 2-son texnikumi, **Pastdarg‘om tumani 1-son texnikumi**, **Xalqaro innovatsion tibbiyot texnikumi**, **Bekobod shahri 1-son texnikumi** va **Shofirkon tumani 1-son texnikumi** ham pedagoglar soni bo‘yicha yuqori o‘rinlarni egalladi.



9-rasm. Pedagoglar ishtiroki eng yuqori bo‘lgan texnikumlar.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Pedagoglarning **79 foizi** fan dasturlari va o‘quv materiallari mehnat bozori hamda ish beruvchilar talablariga to‘liq yoki asosan mos kelishini, **57,5 foizi** esa amaliy ko‘nikmalarni baholashda xalqaro baholash tizimiga o‘xshash amaliy imtihon tizimi mavjudligini qayd etgan.

Biroq respondentlarning **50,8 foizi** laboratoriya va ustaxonalar ta’minotini qoniqarli deb baholagan holda, **texnik yangilanishlar zarurligini** bildirgan. Shuningdek, **20,2 foizi ortiqcha hujjatbozlik va hisobotlar ko‘pligini**, **20,3 foizi** esa so‘nggi ikki yil ichida ishlab chiqarish korxonalarida **malaka oshirish yoki stajirovkadan o‘tish imkoniyati bo‘lmaganini** ta’kidlagan.

Ushbu natijalar moddiy-texnik bazani yangilash, pedagoglarning hisobot yukini kamaytirish va korxonalarda amaliy malaka oshirish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Mazkur tahlil doirasida texnikumlarda **ta’lim sifati, o‘quv muhiti va kasbiy tayyorgarlik uchun yaratilgan shart-sharoitlar** baholanadi. Xususan, o‘quv dasturlarining mehnat bozori talablariga muvofiqligi, amaliy mashg‘ulotlar va ishlab chiqarish amaliyotining sifati, baholash tizimining shaffofligi, ustaxona va laboratoriyalar ta’minoti hamda raqamli resurslardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

O‘quvchilar va pedagoglarning baholari, hududiy tafovutlar hamda ochiq javoblarda bildirilgan taklif va muammolar asosida **texnikumlar tizimini takomillashtirish va bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish bo‘yicha amaliy takliflar** ishlab chiqiladi.

3.3. Umumiy ishtirokchilar tahlili

Hududlar kesimida respondentlar taqsimoti texnikumlar bo‘yicha so‘rovnomada barcha **14 ta hudud** qamrab olinganini ko‘rsatdi. Eng yuqori ishtirok ulushi **Samarqand** (13,2 foiz), **Farg‘ona** (11,9 foiz) va **Qashqadaryo** (10,2 foiz) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Ushbu uch hudud jami respondentlarning **35,3 foizini** tashkil etdi.

Keyingi o‘rinlarni **Andijon** (9,7 foiz) va **Namangan** (8,3 foiz) egalladi. **Surxondaryo** (7,2 foiz), **Buxoro** (6,5 foiz)**, Toshkent viloyati** (6,3 foiz)**, Jizzax** (6,0 foiz) va **Qoraqalpog‘iston Respublikasida** (5,8 foiz) ulushlar bir-biriga nisbatan yaqin bo‘ldi. Pastroq ko‘rsatkichlar **Xorazm** (4,9 foiz), **Toshkent shahri** (4,8 foiz), **Navoiy** (2,8 foiz) va **Sirdaryo** (2,4 foiz) hududlarida qayd etildi.

Mazkur farqlar respondentlarning hududiy tarkibini aks ettirdi. Biroq hududdagi ulushning pastligi so‘rovnoma qamrovi yoki ta’lim sifati past bo‘lganini tasdiqlamadi. Bunday xulosalar uchun ishtirokchilar sonini hududdagi jami o‘quvchilar kontingenti bilan solishtirish hamda ta’lim sifati haqidagi javoblarni alohida baholash zarur bo‘ldi.

Texnikumlar kesimida taqdim etilgan ro‘yxatdagi eng yuqori ulushlar **Zomin tumani 1-son texnikumi** (0,61 foiz), **So‘zangaron jamoat salomatligi texnikumi** (0,6 foiz) va **Marg‘ilon 1-son jamoat salomatligi texnikumida** (0,59 foiz) kuzatildi. **Siyob jamoat salomatligi texnikumi** (0,57 foiz) va **Urgut tumani 1-son texnikumi** (0,52 foiz) ham yuqori o‘rinlarni egalladi. Ushbu beshta tashkilotning umumiy ulushi **2,89 foizni** tashkil etib, alohida texnikumlarning son jihatidan ustunligi cheklanganini ko‘rsatdi.

Xorijiy tajriba tahlilida **Germaniyadagi korxonalararo kasbiy ta’lim markazlari** amaliy tayyorgarlikni to‘ldirish vositasi sifatida ajralib turadi. Ushbu markazlar kichik va o‘rta korxonalarda o‘rgatish imkoni bo‘lmagan ko‘nikmalarni zamonaviy jihozlar yordamida shakllantirishga xizmat qiladi[2].

Bu tajriba texnikumlarning jihozlar ta’minotidagi muammolarini hal etishda umumiy foydalanishdagi hududiy ustaxona va laboratoriyalarni tashkil etish uchun asos sifatida ko‘rib chiqiladi.

Shveysariya tajribasida kasbiy ta’lim sifati uchun davlat, hududiy boshqaruv organlari va kasbiy tashkilotlar o‘rtasida mas’uliyat taqsimlangan. Ta’lim tashkilotlari sifatni boshqarishga, davlat va hududiy organlar esa o‘z vakolatlari doirasida uning nazoratiga mas’ul bo‘ladi[3].

Ushbu yondashuvlardan kelib chiqib, texnikumlar faoliyatini baholashda so‘rovnoma natijalarini **amaliy tayyorgarlik, moddiy-texnik ta’minot, ish beruvchilar bilan hamkorlik va bitiruvchilar bandligi** ko‘rsatkichlari bilan bog‘lash taklif sifatida qayd etildi. Shu bilan birga, samarali tajribalarni ommalashtirish hamda muammolari aniqlangan texnikumlar uchun mas’ullar, muddatlar va kutiladigan natijalar belgilangan **manzilli rivojlantirish dasturlarini** ishlab chiqish tavsiya etildi.

---

[2]Federal Institute for Vocational Education and Training. Inter-company vocational training centres. URL: https://www.bibb.de/en/12303.php? (14.06.2026).

[3] Schweizerische Eidgenossenschaft. VPET system governance. URL: https://www.sbfi.admin.ch/en/vpet-system-governance (14.06.2026)

3.4. Hududlarni natija darajasi bo‘yicha guruhlash


So‘rovnoma natijalari o‘quvchilarning texnikumlardagi o‘quv jarayoni va kasbiy tayyorgarlikning aksariyat yo‘nalishlarini ijobiy baholaganini ko‘rsatdi. Tahlil qilingan **18 ta ko‘rsatkichdan 14 tasida** ijobiy javoblar ulushi **92,1–98,1 foizni** tashkil etdi. Eng yuqori baholar **amaliy mashg‘ulotlar sifati** (98,1 foiz), **pedagoglarning kasbiy mahorati** (98 foiz) va **zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish sharoitlariga** (97,9 foiz) berildi.

Nazariya va amaliyot nisbati (70,7 foiz), **kredit-modul tizimi** (71,4 foiz), **dual ta’lim haqida ma’lumot va unda ishtirok etish** (74,5 foiz) hamda **korxonadagi amaliyot va uning foydaliligi** (82,7 foiz) bo‘yicha ijobiy javoblar ulushi boshqa yo‘nalishlarga nisbatan past bo‘ldi.

Ushbu tafovutlar **amaliy tayyorgarlikni tashkil etish**, **o‘quvchilarni ta’lim shakllari haqida xabardor qilish** va **korxonalar bilan hamkorlik samaradorligini chuqurroq o‘rganish** zarurligini ko‘rsatdi.

Kasbiy ta’limning umumiy sifati haqidagi savolda javoblarning **93,9 foizi** ijobiy guruhga kiritildi. Mazkur ko‘rsatkich o‘quvchilarning subyektiv bahosini aks ettirdi; kasbiy ko‘nikmalarning amalda shakllanganlik darajasini aniqlash esa alohida baholashni talab etdi.

Texnikumlar tizimini shartli ravishda **3 ta guruhga** ajratish mumkin:



10-rasm. Hududlarni natija darajasi bo‘yicha toifalash.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Tahlilga koʻra, hududlarning **21,4 foizi** (3 ta hudud) yuqori natijali guruhga kirdi. Ushbu guruhni **Andijon, Buxoro** va **Qashqadaryo viloyatlari** tashkil etdi. Mazkur hududlar qoʻllangan guruhlash mezoni boʻyicha nisbatan yuqori natijalarni qayd etdi.

Hududlarning **64,3 foizi** (9 ta hudud) barqaror guruhga mansub boʻldi. Ushbu guruhga **Fargʻona, Jizzax, Namangan, Navoiy, Samarqand, Surxondaryo, Xorazm viloyatlari, Qoraqalpogʻiston Respublikasi va Toshkent shahri** kirdi. Bu hududlarda mavjud natijalarni mustahkamlash va ayrim texnikumlardagi rivojlantirish ehtiyojlarini aniqlash muhim yoʻnalish sifatida ajratildi.

Shu bilan birga, hududlarning **14,3 foizi** (2 ta hudud) shartli **xavf guruhini** tashkil etdi. Ushbu guruhga **Sirdaryo** va **Toshkent viloyatlari** kirdi. Mazkur hududlarda nisbatan past baholarning sabablarini texnikumlar kesimida chuqurroq oʻrganish hamda aniqlangan muammolar boʻyicha **manzilli rivojlantirish choralarini belgilash** tavsiya etildi.

Umuman, hududlarning **85,7 foizi** yuqori yoki barqaror guruhga kirdi. Natijalar yuqori guruhdagi texnikumlarning samarali amaliyotlarini oʻrganish, barqaror hududlarda rivojlanishni davom ettirish va xavf guruhidagi hududlarga manzilli koʻmak koʻrsatish zarurligini koʻrsatdi.


3.5. Ta’lim sifati va oʻquv jarayoni boʻyicha natijalar

Hududlar kesimidagi indeks tahlili ta’lim sifati va oʻquv jarayoni darajasida sezilarli hududiy tafovutlar mavjudligini koʻrsatdi. Respublika boʻyicha **oʻrtacha koʻrsatkich 78,5 ballni** tashkil etdi.

Eng yuqori natijalar **Buxoro – 81,6 ball**, **Andijon – 81,5 ball** va **Qashqadaryo – 81,4 ball** viloyatlarida qayd etildi. Keyingi oʻrinlarda **Qoraqalpogʻiston Respublikasi – 79,1 ball**, **Surxondaryo – 78,8 ball** va **Fargʻona–78,7 ball** joylashdi.

Mazkur hududlarda dars sifati, pedagoglar salohiyati va ta’lim jarayonini tashkil etish koʻrsatkichlari respublika oʻrtacha darajasidan yuqori baholandi.

Nisbatan past natijalar **Toshkent viloyati–74,2 ball** va **Sirdaryo viloyatida–74,5 ball** kuzatildi. Shuningdek, **Samarqand–76,6 ball**, **Navoiy–77,2 ball** va **Toshkent shahrida–77,7 ball** qayd etilib, koʻrsatkichlar respublika darajasidan past boʻldi.



11-rasm. Ta’lim sifati va o‘quv jarayonining hududlar kesimidagi natijalari.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Hududlarni ko‘rsatkich darajalari bo‘yicha taqsimlash natijalariga ko‘ra:

3 ta hudud (21,4 foiz) – **80 ball va undan yuqori** (yuqori daraja);

11 ta hudud (78,6 foiz) – **70–79 ball** (barqaror daraja);


Eng yuqori va eng past hududiy ko‘rsatkichlar o‘rtasida **7,4 ballik tafovut** kuzatildi. Natijalar nisbatan past ko‘rsatkichli hududlarda ta’lim sifatiga ta’sir qilgan omillarni texnikumlar kesimida chuqurroq o‘rganish va o‘quv dasturlarini ish beruvchilar ehtiyojlariga moslashtirish bo‘yicha manzilli choralar ishlab chiqish zaruratini ko‘rsatdi.

O‘quvchi va pedagog so‘rovnomalari natijalari birgalikda tahlil qilinganda, **texnikum**lar bo‘yicha umumlashtirilgan o‘rtacha ko‘rsatkich **88,9 ballni** tashkil etdi. Texnikumlar kesimida respublika bo‘yicha **o‘rtacha ko‘rsatkich 92,8 ballni** tashkil etdi.

Eng yuqori natija **“Sharq tibbiyot texnikumi”da 98,3 ball** qayd etildi. Keyingi o‘rinlarda **Vobkent tumani 2-son texnikumi 97,6 ball**, **Chust tumani 3-son texnikumi 97,2 ball**, **Namangan xalqaro tibbiyot texnikumi 97 ball** hamda **“AYLIM” nodavlat ta’lim muassasasi 97 ball** joylashdi.

Nisbatan past ko‘rsatkichlar **Sirdaryo yuridik texnikumi 71,2 ball**, **Andijon yuridik texnikumi 74,9 ball**, **Yangiyo‘l shahar 1-son texnikumi 75,3 ball**, **Quyi Chirchiq tumani 1-son texnikumi 76 ball** va **Jarqo‘rg‘on qurilish va transport texnikumida 76,3 ball** kuzatildi. Eng yuqori va eng past natijalar o‘rtasidagi tafovut **27,1 ballni** tashkil etdi.

Tahlil qilingan texnikumlarning **96,1 foizi** (618 ta) **80 ball va undan yuqori** natija bilan yuqori darajaga, **3,9 foizi** (25 ta) esa **70 balldan 80 ballgacha** bo‘lgan natija bilan barqaror darajaga kirdi. **70 balldan past** umumlashtirilgan ko‘rsatkichlar qayd etilmadi.



12-rasm. Ta’lim sifati va o‘quv jarayonining texnikumlar kesimidagi natijalari.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Sohalar kesimidagi tahlil natijalariga ko‘ra, **tibbiyot, farmatsevtika va ijtimoiy xizmatlar yo‘nalishi** eng yuqori o‘rtacha ko‘rsatkichni qayd etib, **94,7 ballni** tashkil etdi. Keyingi o‘rinlarda **iqtisodiyot va xizmat ko‘rsatish 94,2 ball**, **pedagogika va gumanitar yo‘nalishlar 93,8 ball** hamda **amaliy-texnik va ko‘p tarmoqli yo‘nalishlar 92,2 ball** joylashdi.

Barcha guruhlarda o‘rtacha baholar yuqori bo‘lganiga qaramay, ayrim texnikumlar natijalari o‘rtasida sezilarli tafovut kuzatildi. Eng yuqori va eng past ko‘rsatkichlarni taqqoslash quyidagi farqlarni ko‘rsatdi:


Amaliy-texnik va ko‘p tarmoqli yo‘nalishlar: 99,7–76,9 ball, (22,8 ball farq);

Pedagogika va gumanitar yo‘nalishlar: 97,7–81,0 ball, (16,7 ball farq)

Tibbiyot, farmatsevtika va ijtimoiy xizmatlar: 100–87,6 ball, (12,4 ball farq);

Iqtisodiyot va xizmat ko‘rsatish: 97,7–91,7 ball, (5,9 ball farq);

Eng katta tafovut amaliy-texnik va ko‘p tarmoqli guruhda qayd etildi. Ushbu guruh tarkibidagi yo‘nalishlarning xilma-xilligi sababli farqlarni tegishli kasblar va texnikumlar kesimida chuqurroq o‘rganish zarurati aniqlandi. **Iqtisodiyot va xizmat ko‘rsatish guruhida** esa natijalar bir-biriga nisbatan yaqin shakllandi.



13-rasm. Ta’lim sifati ko‘rsatkichlarining ixtisoslashuv sohalari kesimidagi natijalari.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

3.6. Ta’lim resurslari va infratuzilma tahlili

O‘quvchilar baholari asosida hisoblangan ko‘rsatkichga ko‘ra, ta’lim resurslari va infratuzilmaga oid texnikumlar bo‘yicha respublika o‘rtacha ko‘rsatkichi **95,5 ballni** tashkil etdi.

Tarkibiy ko‘rsatkichlar kesimida **darslik va kutubxona resurslari bilan ta’minlanganlik 96,8 foiz** bilan eng yuqori ijobiy bahoni qayd etdi. Keyingi o‘rinlarda **amaliy mashg‘ulotlar uchun xomashyo va materiallar ta’minoti 96,5 foiz**, **ustaxona va laboratoriyalarning jihozlanganligi 94,6 foiz** hamda **sport bilan shug‘ullanish uchun yaratilgan sharoitlar 94,2 foiz** joylashdi.

Mazkur natijalar ushbu yo‘nalishlarda ijobiy baholar ustun bo‘lganini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, **sport sharoitlari hamda ustaxona va laboratoriya jihozlari** boshqa tarkibiy ko‘rsatkichlarga nisbatan pastroq baholandi.




14-rasm. Ta’lim resurslari va infratuzilmaning tarkibiy ko‘rsatkichlari.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Hududlar kesimida **Buxoro viloyati 97,4 ball** bilan eng yuqori natijani qayd etdi. Shuningdek, **Andijon, Surxondaryo viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida 96,1 balldan** natija kuzatildi. Nisbatan past ko‘rsatkichlar **Toshkent shahrida 92,7 ball**, **Sirdaryo viloyatida 93,6 ball** va **Toshkent viloyatida 93,7 ball** qayd etildi.

Tarkibiy yo‘nalishlar bo‘yicha eng yuqori ijobiy baho **Buxoro viloyatida darslik va kutubxona resurslari bilan ta’minlanganlikka 98,1 foiz**, eng past baho esa **Toshkent shahrida sport bilan shug‘ullanish uchun yaratilgan sharoitlarga 89 foiz** berildi. Ushbu natijalar poytaxt texnikumlarida sport sharoitlariga oid salbiy javoblarning sabablarini alohida o‘rganish zaruratini ko‘rsatdi.




15-rasm. Ta’lim resurslari va infratuzilmaning hududlar kesimidagi natijalari.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Texnikumlar ixtisoslashuvi kesimida ta’lim resurslari va infratuzilma bo‘yicha eng yuqori ijobiy baholar ulushi **amaliy-texnik** va **ko‘p tarmoqli sohada 95,7 foizni** tashkil etdi.

Keyingi o‘rinlarda **tibbiyot 95 foiz**, **pedagogika va gumanitar 94,9 foiz** hamda **iqtisodiyot va xizmatlar sohasi 94,6 foiz** joylashdi. Eng yuqori va eng past ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq **1,1 foiz punktini** tashkil etib, sohalar bo‘yicha baholar bir-biriga yaqin shakllanganini ko‘rsatdi.

Respublika bo‘yicha **o‘quvchilar baholari** tahlilida **darslik va kutubxona resurslari 96,8 foiz** hamda **amaliy mashg‘ulotlar uchun materiallar ta’minoti 96,5 foiz** bilan yuqori baholandi. **Laboratoriya va ustaxona jihozlari 94,6 foiz**, **sport infratuzilmasi 94,2 foiz** bilan nisbatan pastroq natija qayd etdi. Mazkur **4 ta** yo‘nalish bo‘yicha **o‘rtacha ijobiy baholar ulushi 95,5 foizni** tashkil etdi.



16-rasm. Infratuzilma ko‘rsatkichlarining ixtisoslashuv sohalari va respublika kesimidagi natijalari.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Shuningdek, ta’lim resurslari va infratuzilma bo‘yicha **Gurlan tumani 3-son texnikumida eng yuqori natija 100 foiz,** eng past natija esa **Sirdaryo yuridik texnikumida 61,4 foiz** qayd etildi. Eng yuqori va eng past natijalar o‘rtasidagi tafovut **38,6 foizni** tashkil etdi.

3.7. Ta’lim tizimida qo‘shimcha imkoniyatlar tahlili

Tahlilga ko‘ra, texnikumlarda o‘quvchilar uchun yaratilgan qo‘shimcha imkoniyatlar **to‘garaklar faoliyati, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar va mutaxassislik bo‘yicha ish topishga ishonch** orqali baholandi.

Ushbu **3 ta** ko‘rsatkich bo‘yicha **respublika o‘rtacha ijobiy baholar ulushi 94,7 foizni** tashkil etdi.

Qo‘shimcha imkoniyatlar bo‘yicha eng yuqori natijalar **Buxoro 96,5 foiz**, **Surxondaryo 95,8 foiz** va **Xorazm 95,3 foiz** hududlarida qayd etildi. Nisbatan past ko‘rsatkichlar **Sirdaryo 93 foiz**, **Toshkent viloyati 92,4 foiz** va **Toshkent shahri 90,7 foiz** hissasiga to‘g‘ri keldi. Respublika o‘rtacha ko‘rsatkichi **94,7 foizni**, hududlar o‘rtasidagi eng katta tafovut esa **5,8 foiz punktini** tashkil etdi.



17-rasm. Ta’lim tizimidagi qo‘shimcha imkoniyatlarning hududlar kesimidagi natijalari.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.


Eng yuqori ko‘rsatkich **mutaxassislik bo‘yicha ish topishga ishonch 96,4 foiz** yo‘nalishida qayd etildi. **Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning qiziqarliligi 95,4 foiz**, **to‘garaklarning o‘quvchilar qiziqishlariga mosligi 92,3 foiz** bilan baholandi.

Natijalar mazkur imkoniyatlar aksariyat respondentlar tomonidan ijobiy baholanganini ko‘rsatdi. To‘garaklar bo‘yicha nisbatan pastroq natija ularning yo‘nalishlarini o‘quvchilar qiziqishlariga yanada moslashtirish zaruratini ko‘rsatdi.

Shuningdek, **texnikumlarning ish topishda ko‘rsatgan amaliy yordami bo‘yicha ijobiy javoblar ulushi 92,1 foizni** tashkil etdi. Ishga joylashishga ishonch va amaliy yordam ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi **4,3 foiz punktlik tafovut** kasbiy maslahatlar, bo‘sh ish o‘rinlari yarmarkalari hamda ish beruvchilar bilan uchrashuvlarni rivojlantirish uchun asos bo‘ldi.

Texnikumlarda o‘quvchilar uchun yaratilgan qo‘shimcha imkoniyatlar bo‘yicha so‘rov natijalari **aksariyat respondentlar ijobiy fikr bildirganini** ko‘rsatdi. Xususan, **to‘garaklarning qiziqishlariga mosligi bo‘yicha o‘quvchilarning 92,3 foizi**, **ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning qiziqarliligi bo‘yicha 95,4 foizi** ijobiy baho berdi.

O‘qishni tamomlagandan so‘ng **o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ish topishga ishonch yuzasidan ijobiy javoblar ulushi 96,4 foizni** tashkil etdi. Shuningdek, **texnikumning ish topishda ko‘rsatgan amaliy yordamini o‘quvchilarning 92,1 foizi** ijobiy baholadi. Ushbu ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi **4,3 foizlik tafovut** ish beruvchilar bilan uchrashuvlar, kasbiy maslahatlar va bandlikka ko‘maklashish tadbirlarini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatdi.




18-rasm. Ta’lim tizimidagi qo‘shimcha imkoniyatlarning tarkibiy ko‘rsatkichlari.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Bu natijalar texnikumlarda **o‘quvchilarning darsdan tashqari rivojlanishi, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ishtirok etishi** va **kasbiy faoliyatga tayyorlanishi uchun yaratilgan imkoniyatlar aksariyat respondentlar tomonidan ijobiy baholanganini** ko‘rsatdi.

To‘garaklarning o‘quvchilar qiziqishlariga mosligi bo‘yicha **Chust tumani 3-son texnikumi**, **Namangan tumani 4-son texnikumi** va **G‘ozg‘on shahri texnikumida 100 foizdan** ijobiy baho qayd etildi. Shuningdek, **Denov tumani 4-son texnikumida 99,8 foiz**, **G‘uzor tumani 4-son texnikumida 99,6 foiz** natija kuzatildi.

Ushbu ko‘rsatkichlar mazkur texnikumlarda to‘garaklar faoliyati respondentlarning qiziqishlariga yuqori darajada mos kelganini ko‘rsatdi.



19-rasm. Ta’lim tizimidagi qo‘shimcha imkoniyatlarning texnikumlar kesimidagi natijalari.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Shu bilan birga, **to‘garaklarning o‘quvchilar qiziqishlariga mosligi bo‘yicha salbiy javoblarning eng yuqori ulushi Hamshiralar akademiyasida 51,5 foiz** qayd etildi. Keyingi o‘rinlarda **Toshkent xalqaro tibbiyot texnikumi 45,4 foiz**, **Andijan IT-med texnikumi 44,9 foiz**, **Chirchiq shahri 2-son texnikumi 42,5 foiz** va **Koson tibbiyot texnikumi 35,3 foiz** joylashdi.

Ushbu natijalar mazkur muassasalarda to‘garaklar yo‘nalishlari va mashg‘ulotlar mazmunini o‘quvchilar ehtiyojlariga moslashtirish zaruratini ko‘rsatdi.

Respublika bo‘yicha **to‘garaklar faoliyatiga ijobiy baholar 92,3 foizni**, **ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning qiziqarliligiga ijobiy baholar esa 95,4 foizni** tashkil etdi. **Mutaxassislik bo‘yicha ish topishga ishonch yuzasidan ijobiy javoblar ulushi 96,4 foiz** bilan eng yuqori natijani qayd etdi. Biroq bu ko‘rsatkich bitiruvchilarning amaldagi bandlik darajasini emas, respondentlarning kelgusida ish topishga ishonchini ifodaladi.

Ish topishda texnikumning amaliy yordamiga ijobiy baholar 92,1 foizni tashkil etdi. Ish topishga ishonch bilan amaliy yordam baholari o‘rtasidagi **4,3 foizlik tafovut** bandlikka ko‘maklashish xizmatlari va ish beruvchilar bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish lozimligini ko‘rsatdi.

3.8. O‘quvchilarning ochiq javoblari tahlili


So‘rovnoma doirasida **301 600 nafar o‘quvchidan 142 491 ta mazmunli ochiq javob** olindi. Ularning **141 899 tasi** (99,6 foiz) takliflar, **592 tasi** (0,4 foiz) esa shikoyatlardan iborat bo‘lib, o‘quvchilar asosan ta’lim sifatini takomillashtirishga qaratilgan konstruktiv fikrlarni bildirgan.

Eng ko‘p takliflar **amaliyot va amaliy mashg‘ulotlarni kuchaytirish** (56 575 ta), **bilim, ta’lim va ko‘nikmalarni rivojlantirish** (38 122 ta) hamda **korxonalar bilan hamkorlikni kengaytirish** (30 051 ta) bo‘yicha qayd etildi.

Bu fikrlar o‘quvchilar kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlash va ta’limni real ish muhiti bilan bog‘lashga e’tibor qaratganini ko‘rsatdi.

Shikoyatlar tarkibida ham asosiy muammolar **amaliyot va amaliy mashg‘ulotlar** bo‘yicha **183 ta**, **bilim, ta’lim va ko‘nikmalar** bo‘yicha **70 ta**, **korxonalar bilan hamkorlik** bo‘yicha **47 ta** ekanligi aniqlandi.

Bu mazkur yo‘nalishlar o‘quvchilar uchun eng dolzarb masalalar bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi.



20-rasm. O‘quvchilarning ochiq javoblari tarkibi va asosiy yo‘nalishlari.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Ochiq javoblar tahlili o‘quvchilarning asosiy takliflari **amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish, kasbiy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda ishga joylashishga ko‘maklashish** bilan bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatdi.

O‘quvchilarning javoblari asosida shakllantirilgan «so‘zlar bulutida» **«amaliyot»**, **«bilim va ko‘nikmalar»**, **«korxonalar bilan hamkorlik»**, **«ishga joylashish»** va **«ta’lim sifati»** kabi tushunchalar asosiy o‘rin egalladi.

Ular ta’lim jarayonini amaliy faoliyat bilan bog‘lash va bitiruvchilarning mehnat bozoriga tayyorgarligini oshirishga bo‘lgan ehtiyojni aks ettirdi.

Shuningdek, **«zamonaviy jihozlar»**, **«dual ta’lim»**, **«bo‘sh ish o‘rinlari»**, **«kasbga yo‘naltirish»** va **«o‘quvchi qiziqishi»** kabi tushunchalar o‘quv sharoitlarini yaxshilash, ish beruvchilar bilan aloqalarni kengaytirish hamda o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olishga oid takliflarni ifodaladi.



21-rasm. O‘quvchilarning ochiq javoblari so‘zlar buluti.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

3.9. Texnikum o‘qituvchilari nazarida ta’lim jarayoni va shart-sharoitlar

So‘rovnomaga ko‘ra, ta’lim sifatini belgilovchi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha pedagoglarning baholari umumiy jihatdan ijobiy shakllandi.


O‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini baholash bo‘yicha respondentlarning **57,6 foizi** xalqaro baholash tizimiga o‘xshash amaliy imtihon tizimi mavjudligini bildirdi. Biroq **38,6 foizi** baholash faqat nazariy test va og‘zaki so‘rov orqali amalga oshirilishini qayd etdi.

Moddiy-texnik baza bo‘yicha respondentlarning **68,7 foizi** ta’lim tashkilotlari to‘liq yoki yetarli darajada ta’minlanganini bildirdi. **22,6 foizi** ta’minotni qisman, **8,7 foizi** esa yetarli emas yoki umuman mavjud emas deb baholadi. Bu ayrim texnikumlarda moddiy-texnik sharoitlarni yaxshilashga ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatdi.

IT va internet ta’minoti bo‘yicha to‘liq yoki asosan qoniqqan respondentlar ulushi **71,2 foizni** tashkil etdi. Eng yuqori natijalar **Buxoro** (77,7 foiz) va **Andijon** (76 foiz) viloyatlarida qayd etildi. **Toshkent shahri** (63,1 foiz) va **Toshkent viloyatida** (64,5 foiz) esa mazkur ko‘rsatkich respublika o‘rtacha darajasidan past bo‘ldi.

Pedagoglarning ish yuklamasi bo‘yicha respondentlarning **54,5 foizi** yuklama me’yorida ekanini, **19,1 foizi** biroz yuqori bo‘lsa-da, ishlash mumkinligini, **4 foizi** esa juda yuqori ekanini bildirdi.

Shuningdek, **20,1 foizi** ortiqcha hujjatbozlik va hisobotlar ko‘pligini qayd etdi, **2,3 foizi** javob berishga qiynaldi. Natijalar ayrim texnikumlarda pedagogik yuklama va hisobot talablarini qayta ko‘rib chiqish zaruratini ko‘rsatdi.



22-rasm. Pedagoglar nazarida ta’lim sifati va ish yuklamasi.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

3.10. Pedagoglar bahosida kasbiy tayyorgarlik sifati va ta’limni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari

Tahlilga ko‘ra, texnikumlarda ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha pedagoglarning baholari umumiy jihatdan ijobiy shakllandi. Shu bilan birga, **moddiy-texnik ta’minot**, **raqamli infratuzilma**, **amaliy ko‘nikmalarni baholash** va **ish yuklamasi** bo‘yicha hududlar o‘rtasida tafovutlar kuzatildi.

Amaliy koʻnikmalarni baholash boʻyicha respondentlarning **57,6 foizi** xalqaro baholash tizimiga oʻxshash amaliy imtihon tizimi mavjudligini bildirdi. Mazkur koʻrsatkich **Qashqadaryo** (63,8 foiz), **Buxoro** (61,7 foiz) va **Namangan** (60,4 foiz) viloyatlarida eng yuqori boʻldi. Nisbatan past natijalar **Qoraqalpogʻiston Respublikasi** (52,1 foiz), **Navoiy** (52,6 foiz) va **Toshkent** (53,6 foiz) viloyatlarida qayd etildi. Respublika boʻyicha pedagoglarning **38,6 foizi baholash faqat nazariy test va ogʻzaki soʻrov orqali amalga oshirilishini** ta'kidladi.


Moddiy-texnik baza boʻyicha pedagoglarning **68,7 foizi** ta'lim tashkilotlari toʻliq yoki yetarli darajada ta'minlanganini bildirdi. Bunda **Andijon** (75,6 foiz), **Qashqadaryo** (72,6 foiz) va **Xorazm** (72,4 foiz) viloyatlari yetakchilik qildi. Eng past natijalar **Sirdaryo** (58,1 foiz), **Namangan** (63,3 foiz) va **Navoiy** (63,5 foiz) viloyatlarida kuzatildi. Eng yuqori va eng past koʻrsatkich oʻrtasidagi farq **17,5 foizni** tashkil etdi.

IT va internet ta'minoti boʻyicha toʻliq yoki asosan qoniqqan pedagoglar ulushi **71,2 foizni** tashkil etdi. Eng yuqori koʻrsatkichlar **Buxoro** (77,7 foiz), **Andijon** (76 foiz) va **Qashqadaryo** (75,7 foiz) viloyatlarida qayd etildi. **Toshkent shahri** (63,1 foiz), **Toshkent viloyati** (64,5 foiz) va **Samarqand viloyatida** (67,2 foiz) esa natijalar respublika oʻrtacha darajasidan past boʻldi. Bu hududlarda raqamli ta'lim sharoitlarini yaxshilashga ehtiyoj mavjudligini koʻrsatdi.

Pedagoglarning ish yuklamasi boʻyicha respondentlarning **54,5 foizi** yuklama me'yorida ekanini, **19,1 foizi** biroz yuqori boʻlsa-da, ishlash mumkinligini bildirdi. **4 foizi** ish yuklamasi juda yuqori ekanini, **20,1 foizi** esa ortiqcha hujjatbozlik va hisobotlar koʻpligini qayd etdi. Qolgan **2,3 foizi** javob berishga qiynaldi.

Juda yuqori ish yuklamasi yoki ortiqcha hujjatbozlikni bildirgan pedagoglarning jami ulushi **24,1 foizni** tashkil etdi. Ushbu koʻrsatkich **Toshkent viloyati** (30,2 foiz), **Namangan** (28,9 foiz) va **Andijon** (27,1 foiz) viloyatlarida eng yuqori boʻldi. Nisbatan past ulushlar **Surxondaryo** (18,6 foiz), **Qashqadaryo** (20,6 foiz) va **Xorazm** (20,8 foiz) viloyatlarida kuzatildi.

Natijalar texnikumlarda moddiy-texnik va raqamli ta'minotni hududiy ehtiyojlar asosida yaxshilash, amaliy koʻnikmalarni baholash tizimini kengaytirish hamda pedagoglarning ish yuklamasi va hisobot talablarini qayta koʻrib chiqish zaruratini koʻrsatdi.



23-rasm. Pedagoglar baholaridagi hududiy tafovutlar.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.


O‘qituvchilar baholariga ko‘ra, texnikumlar faoliyatini yaxshilashda **moddiy-texnik bazani yangilash**, **ish haqi va rag‘batlantirishni oshirish** hamda **o‘quv dasturlarini zamonaviylashtirish** ustuvor yo‘nalishlar sifatida qayd etildi.

Mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha **9 666 nafar** (37,7 foiz), **9 331 nafar** (36,4 foiz) va **5 240 nafar** (20,4 foiz)ni tashkil etdi. Ma’naviy-ma’rifiy muhitni sog‘lomlashtirish hissasiga **831 nafar** (3,2 foiz), boshqaruv uslubini o‘zgartirish hissasiga esa **581 nafar** (2,3 foiz) to‘g‘ri keldi.

Shuningdek, o‘quv dasturlari va materiallarining mehnat bozori talablariga mosligini ijobiy baholaganlar soni **20 149 nafar** (78,6 foiz) bo‘ldi. Dual ta’lim uchun sharoitlarni yetarli deb hisoblaganlar **18 988 nafar** (74 foiz), ish beruvchilar bilan hamkorlikni ijobiy baholaganlar esa **17 503 nafar** (68,2 foiz)ni tashkil etdi.

Xorijiy ta’lim dasturlari faol qo‘llanilayotganini bildirganlar soni **11 532 nafar** (45 foiz) bo‘ldi. Ushbu natija xalqaro ta’lim elementlarini kengaytirish va ularni kasbiy tayyorgarlik jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatdi.

Tahlil moddiy-texnik ta’minotni yaxshilash, pedagoglarni rag‘batlantirish, o‘quv dasturlarini zamonaviy kompetensiyalar asosida yangilash hamda korxonalar va xorijiy hamkorlar bilan aloqalarni rivojlantirish muhim yo‘nalishlar bo‘lganini ko‘rsatdi.



24-rasm. Pedagoglar bahosida ta’lim sifati va o‘quvchilarni oliy ta’limga tayyorlash darajasi.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

3.11. Pedagoglarning ochiq javoblari tahlili


So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, o‘qituvchilar tomonidan **14 956 ta taklif** va **530 ta shikoyat** bildirilgan. Bu o‘qituvchilarning texnikumlar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha faol fuqarolik pozitsiyasiga ega ekanini hamda muammolarni hal etishga qaratilgan amaliy takliflar ustunligini ko‘rsatadi.

Takliflar tarkibida **moddiy-texnik bazani yaxshilash 41,1 foiz** va **amaliy ta’limni kuchaytirish 37,8 foiz** bilan asosiy yo‘nalishlar sifatida ajralib turdi. Pedagoglar laboratoriya va ustaxonalarni zamonaviy jihozlar bilan ta’minlash, amaliy mashg‘ulotlarni ko‘paytirish hamda nazariy bilimlarni ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘lash zarurligini bildirdi.

Shuningdek, **korxonalar bilan hamkorlikni kengaytirish 19,9 foiz**, **ish haqi va moddiy rag‘batlantirish 14,2 foiz**, **malaka oshirish 5,9 foiz**, **hujjatbozlik va ish yuklamasini kamaytirish 4,7 foiz**, **dasturlar va darsliklarni yangilash 4,6 foiz** hamda **dual ta’lim 2,9 foiz** bo‘yicha takliflar qayd etildi.

Shikoyatlar tarkibida **hujjatbozlik va ish yuklamasi 53,4 foiz**, **moddiy-texnik baza 41,9 foiz** hamda **ish haqi va rag‘batlantirish 40,9 foiz** bilan ajralib turdi. Bundan tashqari, **amaliy ta’lim 20,9 foiz**, **korxonalar bilan hamkorlik 9,1 foiz**, **malaka oshirish 6,4 foiz**, **dasturlar va darsliklar 5,8 foiz** hamda **dual ta’lim 2,5 foiz** bilan bog‘liq muammolar qayd etildi.

Natijalar zamonaviy amaliy ta’lim sharoitlarini yaratish, pedagoglarning mehnatini rag‘batlantirish va ortiqcha hisobot yukini kamaytirish muhim yo‘nalishlar bo‘lganini ko‘rsatdi.



25-rasm. So‘rovnoma natijalarining mavzular bo‘yicha taqsimoti.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Takliflar va shikoyatlarda ayrim mavzularning takrorlanishi texnikumlarda ta’lim sifatini yaxshilash uchun e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan yo‘nalishlarni ko‘rsatdi.

Moddiy-texnik bazani mustahkamlash, **amaliy ta’limni kuchaytirish**, **pedagoglarni rag‘batlantirish** hamda **ortiqcha hujjatbozlik va ish yuklamasini kamaytirish** muhim masalalar sifatida ajralib turdi.

Pedagoglarning ochiq javoblari asosida shakllantirilgan «so‘zlar bulutida» **«jihozlar»**, **«amaliyot»**, **«moddiy-texnik baza»**, **«hamkorlik»** va **«korxonalar»** tushunchalari yirik ko‘rinishda aks etdi. Ular laboratoriya va ustaxonalarni zamonaviy uskunalar bilan ta’minlash, amaliy mashg‘ulotlarni kuchaytirish hamda ta’lim jarayonini ishlab chiqarish bilan uyg‘unlashtirishga oid takliflarni ifodaladi.

Shuningdek, **«maosh»**, **«rag‘batlantirish»**, **«malaka oshirish»**, **«stajirovka»**, **«hujjatbozlik»** va **«yuklama»** tushunchalari pedagoglarning mehnatini munosib baholash, kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish

va ma’muriy yuklamalarni qisqartirishga oid ehtiyojlarni aks ettirdi. **«O‘quv dasturlari»**, **«darsliklar»**, **«dual ta’lim»** va **«kasbiy ko‘nikmalar»** tushunchalari esa ta’lim mazmunini yangilash hamda o‘quvchilarning amaliy tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan fikrlarni ifodaladi.



26-rasm. Pedagoglarning ochiq javoblari asosida so‘zlar buluti.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

3.12. Pearson dasturlari joriy etilgan va boshqa texnikumlarda ta’lim sifatining qiyosiy tahlili

O‘zbekistonda texnikumlarning xalqaro ta’lim dasturlariga o‘tishi kasbiy tayyorgarlikni mahalliy va xorijiy mehnat bozori talablariga moslashtirish maqsadida yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-son Farmoni bilan xalqaro dasturlar joriy qilinadigan texnikumlar va ularning faoliyatini tashkil etish tartibi belgilandi[4]. Bunga ko‘ra Pearson bilan hamkorlik o‘rnatilib, **2025/2026 o‘quv yilidan 14 ta texnikumda** BTEC malaka modullarini milliy dasturlarga integratsiya qilish nazarda tutildi.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-son Farmoni.
URL: https://www.lex.uz/uz/docs/-7166588 (16.06.2026)

Demak, mazkur texnikumlarning o‘ziga xosligi milliy kasbiy ta’lim tarkibida xalqaro dastur va baholash yondashuvlarini qo‘llash imkoniyati bilan belgilandi[5].

№	Hudud	Texnikum nomi
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Nukus shahar 1-son texnikumi
2	Andijon viloyati	Asaka tuman 4-son texnikumi
3	Buxoro viloyati	Buxoro shahar 1-son texnikumi
4	Jizzax viloyati	Jizzax shahar 1-son texnikumi
5	Qashqadaryo viloyati	G‘uzor tuman 3-son texnikumi
6	Navoiy viloyati	Navbahor tuman 2-son texnikumi
7	Namangan viloyati	Uychi tuman 1-son texnikumi
8	Samarqand viloyati	Samarqand shahar 1-son texnikumi
9	Sirdaryo viloyati	Sirdaryo tuman 1-son texnikumi
10	Surxondaryo viloyati	Termiz shahar 2-son texnikumi
11	Toshkent viloyati	Chirchiq shahar 1-son texnikumi
12	Farg‘ona viloyati	Farg‘ona shahar 4-son texnikumi
13	Xorazm viloyati	Urganch shahar 1-son texnikumi
14	Toshkent shahri	Chilonzor tuman 1-son texnikumi

1-jadval. Pearson dasturlari joriy etilgan texnikumlar ro‘yxati.

Pearson dasturlari o‘quv mazmunini ish beruvchilar ehtiyojlariga bog‘lash va bilimlarni amaliy vazifalar orqali qo‘llashga yo‘naltirilgani sababli, ularni joriy etish pedagoglarning tayyorgarligi hamda metodik ta’minotni yangilashni ham talab qiladi.

Shu maqsadda hamkorlik doirasida pedagoglarni o‘qitish, o‘quv resurslarini tavsiya etish va dasturlarni amalga oshirishda metodik yordam ko‘rsatish belgilandi. **Xalqaro mazmun, pedagoglar tayyorgarligi va amaliy o‘qitishning o‘zaro bog‘lanishi** Pearson texnikumlarining qo‘shimcha imkoniyatini tashkil etdi[6]. Biroq ushbu imkoniyatning ta’limdagi ustunlikka aylanishi uning mashg‘ulotlarda qanchalik samarali qo‘llanishiga bog‘liq.

[5] Butunjahon ta’lim forumi: muhim kelishuvlarga erishildi URL https://gov.uz/oz/edu/news/view/56069 (18.06.2026)

[6] Pearson and Uzbekistan Ministry of Higher Education, Science and Innovation Partner in Major Education Reform Push

Xalqaro talablarga javob berish imkoniyati BTEC dasturlaridagi o‘quv natijalari, baholash mezonlari va sifatni tekshirish mexanizmlari orqali shakllanadi[7].

Pearsonning sifatni ta’minlash tartiblari baholashning belgilangan standartlarga muvofiqligini tekshirishga qaratilgan. Shu bois xalqaro dasturdan kutilayotgan natijaga erishish uchun **o‘quv mazmuni, amaliyot sharoiti va baholash mezonlari bir-biriga mos bo‘lishi** zarur. Ushbu bog‘liqlikni o‘quvchilar va pedagoglar baholari orqali o‘rganish dastur imkoniyatlari qaysi yo‘nalishlarda namoyon bo‘lganini, qaysilarida qo‘shimcha choralar kerakligini aniqlashga yordam beradi.

Tahlilga ko‘ra, **Pearson xalqaro ta’lim dasturlari joriy etilgan texnikumlar va boshqa texnikumlarda** o‘quvchilar hamda pedagoglar baholari o‘rtasida ayrim yo‘nalishlar bo‘yicha sezilarli tafovutlar qayd etildi.

Amaliy mashg‘ulotlar sifati bo‘yicha o‘quvchilar baholari Pearson texnikumlarida **62 foiz**, boshqa texnikumlarda esa **93 foizni** tashkil etdi.

Mazkur yo‘nalishda **31 foizlik farq** qayd etilib, bu taqqoslangan ko‘rsatkichlar orasidagi eng katta tafovut bo‘ldi. Ushbu natija Pearson texnikumlarida amaliy mashg‘ulotlarning mazmuni va ularni tashkil etish sharoitlarini chuqurroq o‘rganish zarurligini ko‘rsatdi.

Moddiy-texnik baza bo‘yicha pedagoglar baholari Pearson texnikumlarida **73 foiz**, boshqa texnikumlarda **91 foizni** tashkil etdi.

Bunda Pearson texnikumlarining ko‘rsatkichi **18 foizga past** bo‘ldi. Shu bilan birga, laboratoriya va ustaxonalar jihozlanishi Pearson texnikumlarida **93 foiz**, boshqa texnikumlarda **80 foiz** darajasida baholandi. Bu umumiy moddiy-texnik sharoitlar va laboratoriya jihozlanishi bo‘yicha baholar bir xil shakllanmaganini ko‘rsatdi.

Amaliy ko‘nikmalarni baholash shaffofligi bo‘yicha Pearson texnikumlarida pedagoglar baholari **76 foizni** tashkil etdi. Boshqa texnikumlarda esa **58 foiz** bo‘lib, guruhlar o‘rtasidagi farq **18 foizga** teng.

URL: https://plc.pearson.com/en-GB/news-and-insights/news/pearson-and-uzbekistan-ministry-higher-education-science-and-innovation (18.06.2026)

[7] Centre Guide to Quality Assurance and International Standards Verification 2025-26
URL: https://qualifications.pearson.com/content/dam/pdf/btec-international-level-3/QADocs/centre-guide-to-quality-assurance-and-international-standards-verification-2025-26.pdf (18.06.2026)


Bu Pearson texnikumlarida amaliy ko‘nikmalarni baholash jarayoni nisbatan shaffofroq baholanganini ko‘rsatdi.

Kredit-modul tizimi bo‘yicha o‘quvchilar baholari Pearson texnikumlarida **75 foiz**, boshqa texnikumlarda esa **59 foizni** tashkil etdi.

Mazkur yo‘nalishda Pearson texnikumlari **16 foizga yuqori natija** qayd etdi. Ushbu ko‘rsatkich modulli ta’limni tashkil etish bo‘yicha o‘quvchilar baholari Pearson guruhida nisbatan yuqoriroq shakllanganini ko‘rsatdi.

Chet el stajirovkasi tizimi bo‘yicha pedagoglar baholari Pearson texnikumlarida **77 foiz**, boshqa texnikumlarda **63 foizni** tashkil etdi.

Bunda **14 foizlik farq** Pearson texnikumlari foydasiga qayd etildi. Mazkur natija xalqaro stajirovka tizimi ushbu texnikumlar pedagoglari tomonidan yuqoriroq baholanganini ko‘rsatdi.



27-rasm. Pearson dasturlari joriy etilgan va boshqa texnikumlarda ta’lim sifatining qiyosiy tahlili.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Umuman, Pearson texnikumlarida ta’limni modullar asosida tashkil etish, baholash shaffofligi va xalqaro stajirovka bo‘yicha yuqoriroq ko‘rsatkichlar qayd etildi.

Biroq amaliy mashg‘ulotlar sifati va umumiy moddiy-texnik sharoitlar bo‘yicha pastroq baholar **xalqaro dasturlarni amalga oshirishda amaliy ta’lim sharoitlarini yaxshilashga qo‘shimcha e’tibor qaratish** zarurligini ko‘rsatdi.

3.13. Xalqaro tajriba: Germaniya, Shveysariya, Finlandiya, Singapur va Avstraliya

Xalqaro tajribada kasbiy tayyorgarlikni ish joyidagi amaliyot bilan bog‘lash, ish beruvchilarni ta’lim jarayoniga jalb etish hamda natijalarni muntazam baholash mexanizmlari muhim o‘rin tutadi.

Mazkur bo‘limda **Germaniya**, **Shveysariya**, **Finlandiya**, **Singapur** va **Avstraliya** tajribasi O‘zbekiston texnikumlarining sohaviy vazifalari, mavjud resurslari va boshqaruv sharoitlariga moslashtirish imkoniyatlari nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.

Germaniya tajribasi. Germaniyaning dual ta’lim tizimida korxonadagi amaliy tayyorgarlik kasb maktabidagi nazariy ta’lim bilan uyg‘unlashtiriladi. Yakuniy imtihonlarni palatalar tashkil etadi, korxona ustozlarining malakasi va kasb maktabi pedagoglarining tayyorgarligi esa ta’lim sifatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi[8].

Kasbiy ta’limda federal hukumat, federal yerlar, ijtimoiy sheriklar va palatalar turli vazifalarni bajaradi[9].

Xususan, vakolatli palatalar korxonaning o‘qitishga yaroqliligini va ustozlarning malakasini nazorat qiladi, shogirdlik shartnomalarini ro‘yxatga oladi hamda korxonadagi ta’lim jarayonini kuzatib boradi[10].

Bu ish beruvchini ta’limga jalb qilish va uning o‘qitish imkoniyatini mustaqil baholash o‘zaro uzviy bog‘liq jarayonlar ekanini ko‘rsatadi.

Mazkur tajribani moslashtirishda korxonalarni dual ta’lim hamkorlari reyestriga ustaxona, xavfsizlik sharoiti, o‘quv topshiriqlari va malakali ustoz mavjudligi tekshirilganidan so‘ng kiritish, shartnomada o‘rgatiladigan kompetensiyalarni belgilash hamda yakuniy amaliy baholashda mustaqil soha eksperti ishtirokini pilot tartibda sinovdan o‘tkazish maqsadga muvofiq.

Bunda palatalarning huquqiy vakolatlarini aynan ko‘chirish emas, balki ularning sifat nazorati funksiyasini milliy institutsional tizimga moslashtirish nazarda tutiladi.

---

[8] Federal Institute for Vocational Education and Training (BIBB). Competent Bodies in Germany URL: https://www.bibb.de/en/77203.php (16.06.2026)
[9] Federal Institute for Vocational Education and Training (BIBB). Competent Bodies in Germany. URL: https://www.bibb.de/en/146199.php (16.06.2026)
[10]; BIBB. Quality assurance.
URL: https://www.bibb.de/en/77215.php (16.06.2026)

Shveysariya tajribasi. Shveysariya kasbiy ta’limida korxona, kasb maktabi va tarmoq o‘quv markazi bir-birini to‘ldiradi.

Korxona real ish tajribasini, kasb maktabi nazariy tayyorgarlikni, tarmoq markazi esa korxonada to‘liq o‘rgatish qiyin bo‘lgan bazaviy amaliy ko‘nikmalarni ta’minlaydi. Tizim Konfederatsiya, kantonlar va kasbiy tashkilotlar hamkorligida boshqariladi.

Mazkur uch muhit o‘rtasidagi vazifalar har bir kasb bo‘yicha o‘quv rejasi orqali taqsimlanadi [11] Bu model jihozlar xaridini har bir texnikumda takrorlashdan ko‘ra, ta’lim natijalari va uskunalardan foydalanish jadvalini birgalikda rejalashtirishga asoslanadi.

Mazkur tajriba qimmat yoki maxsus jihozlardan bir nechta texnikum va korxona birgalikda foydalanadigan hududiy amaliy mahorat markazlarini tashkil etish uchun asos bo‘lishi mumkin.

Buning uchun kam foydalaniladigan qimmat jihozlarni xatlovdan o‘tkazish, bir hududdagi bir xil kasblar uchun umumiy markazni pilot tartibda tashkil etish hamda o‘quvchi qaysi kompetensiyani texnikumda, korxonada yoki markazda egallashini individual amaliyot jadvalida belgilash maqsadga muvofiq.

Natijani uskunaning mavjudligi bilan emas, amalda o‘tkazilgan mashg‘ulotlar va o‘zlashtirilgan ko‘nikmalar orqali baholash lozim.

Finlandiya tajribasiga ko‘ra, kasbiy malakalar kompetensiyalarga asoslanadi. O‘quvchining ilgari egallagan bilim va ko‘nikmalarini tan olish, yetishmayotgan kompetensiyalarni aniqlash va shaxsiy rivojlanish rejasini tuzish ta’limni individual ehtiyojlarga moslashtirish imkonini beradi.

Sifatni ta’minlashda muntazam takomillashtirish va tashkilotlararo ekspert baholash (peer review) yondashuvlari qo‘llaniladi.

Har bir o‘quvchining shaxsiy rivojlanish rejasida o‘qish davomida zarur bo‘lgan yo‘l-yo‘riq va karyera maqsadlari qayd etiladi[12]. Sifatni baholash o‘quv jarayoni, ish joyida o‘rganish va kompetensiyani amalda namoyish etish yo‘nalishlarini qamrab oladi[13].

---

[11] Swiss Confederation. Training apprentices.
URL: https://www.kmu.admin.ch/en/training-apprentices (17.06.2026)

[12] Finnish National Agency for Education (EDUFI). Guidance and counselling in vocational education and training.
URL: https://www.oph.fi/en/education-and-qualifications/guidance-and-counselling-vocational-education-and-training (18.06.2026)

[13] EDUFI. Peer Review.

Shuningdek, ish joyidagi ustozlar va korxonalar fikri alohida so‘rovlar orqali yig‘iladi; mazkur fikrlar o‘quvchining shaxsiy bahosiga emas, ta’lim tashkiloti bilan hamkorlik sifatiga qaratilgan[14].

Texnikumlar uchun mazkur tajriba amaliy ko‘nikmalarni har bir o‘quvchi kesimida qayd etish va o‘zlashtirilgan kompetensiyani real ishga yaqin topshiriqlar orqali baholash imkonini beradi.

Xususan, o‘quvchining boshlang‘ich ko‘nikmalari, o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan kompetensiyalar, amaliyot joyi va karyera maqsadini yagona elektron rivojlanish kartasida yuritish hamda amaliyot yakunida ish beruvchidan alohida fikr olish maqsadga muvofiq. Bu umumiy qoniqish ko‘rsatkichlarini real amaliy ko‘nikmalar bilan birgalikda talqin qilishga xizmat qiladi.

Singapur tajribasi. Singapur Texnik ta’lim institutining (ITE) «Work-Study Diploma» dasturi **2,5 yillik** shogirdlik modeli asosida tashkil etilgan bo‘lib, tayyorgarlikning **70–80 foizi** ish joyida, **20–30 foizi** esa institutda amalga oshiriladi. Ishtirokchilar hamkor korxonada xodim sifatida ishlaydi va ish haqi oladi. Dastur ish tajribasini milliy miqyosda tan olinadigan diplom olish bilan birlashtiradi [15].

Ish joyidagi tayyorgarlik dasturi va ish beruvchining o‘qitishdagi ishtiroki institut bilan muvofiqlashtiriladi. Shu bilan birga, keltirilgan ulushlar aynan mazkur diplom dasturiga tegishli bo‘lib, ularni barcha kasblar yoki texnikumlar uchun tayyor me’yor sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq emas.

Mazkur tajribani qo‘llash uchun ish joyida bajariladigan topshiriqlar aniq belgilangan kasblarda kichik pilot guruhlar tashkil etish, korxona ustozining yuklamasi, o‘quvchining mehnat xavfsizligi, to‘lov shartlari va kompetensiyalarni baholash tartibini oldindan kelishib olish lozim.

Amaliyot soatlari ulushini belgilashdan avval korxonalarning haqiqiy o‘qitish salohiyati va o‘quv dasturi talablarini o‘rganish zarur.

URL: https://www.oph.fi/en/education-system/finnish-vocational-education-and-training/quality-assurance-national-reference/peer-review (18.06.2026)

[14] EDUFI. Feedback from the working life.

URL: https://www.oph.fi/en/development/feedback-working-life (18.06.2026)

[15] Institute of Technical Education (ITE), Singapore. Admission for Work-Study Diploma.

URL: https://www.ite.edu.sg/current-full-time-students/progression/work-study-diploma/admission-for-work-study-diploma/; (18.06.2026)

ITE. Work-Study Diploma.

URL: https://www.ite.edu.sg/current-full-time-students/progression/work-study-diploma/ (18.06.2026)

Avstraliya tajribasi. Avstraliyada kasbiy ta’lim tashkilotlari uchun sifatni boshqarish muntazam monitoring, faoliyatni baholash va aniqlangan natijalar asosida xizmatlarni takomillashtirishga tayanadi.

2025-yil 1-iyuldan kuchga kirgan standartlar natijalarga yo‘naltirilgan sifat boshqaruviga urg‘u beradi[16].

Xususan, **4.4-standartga** ko‘ra, ta’lim tashkiloti o‘quvchilar, xodimlar, ish beruvchilar va soha vakillaridan olingan fikrlarni tizimli tahlil qilib, ko‘rilgan choralar va ularning natijalarini hujjatlashtirishi lozim[17].

Mazkur yondashuvni texnikumlarda qo‘llash uchun shikoyatlar, ta’limni tamomlash natijalari va ish beruvchilar fikrlarini yagona tahlil jarayoniga birlashtirish maqsadga muvofiq.

Xususan, texnikumlar kesimida **«muammo–tasdiqlovchi dalil–mas’ul ijrochi–muddat–ko‘rilgan chora–qayta baholash natijasi»** zanjirini yuritish hamda keyingi so‘rovda aynan qaysi muammo bartaraf etilganini tekshirish tavsiya etiladi.

Mazkur taklif xorijiy standartni avtomatik tarzda qo‘llashni emas, balki milliy monitoring tizimini takomillashtirishni nazarda tutadi. O‘quvchi va pedagog so‘rovlari natijalarini ish beruvchilar fikri hamda bitiruvchilar bandligi bilan birlashtirish ta’lim sifatini bir martalik tekshiruv bilan cheklamasdan, muntazam boshqarish imkonini beradi.

III bob bo‘yicha xulosa

Umuman olganda, III bob natijalari texnikumlarda ta’lim sifatiga berilgan umumiy baholar ijobiy bo‘lsa-da, **hududlar, sohalar va alohida muassasalar o‘rtasida sezilarli tafovutlar** mavjudligini ko‘rsatadi.

Tahlil amaliyot hajmi va mazmuni, jihozlar hamda sarf materiallari bilan ta’minlanganlik, pedagoglarning ishlab chiqarish tajribasi va ish yuklamasi bilan bog‘liq **muammolar ko‘p hollarda bir muassasada birgalikda namoyon bo‘lishini** ko‘rsatdi.

---

[16] Australian Skills Quality Authority (ASQA). About the Standards.
URL: https://www.asqa.gov.au/for-providers/standards-for-RTOs/about-the-standards (18.06.2026)

[17] ASQA. Practice guide: Continuous improvement.
URL: https://legacy.asqa.gov.au/rtos/2025-standards-rtos/practice-guides/practice-guide-continuous-improvement; (18.06.2026)
ASQA. Quality indicator annual summary.
URL: https://www.asqa.gov.au/for-providers/provider-obligations/data-collection-provision/quality-indicator-annual-summary (18.06.2026)

Shu bois texnikumlarni rivojlantirish choralarini umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichlar asosida emas, **har bir muassasa va ta’lim dasturining aniq ehtiyojlaridan kelib chiqib** belgilash maqsadga muvofiq.

Xalqaro tajriba **ish beruvchilar ishtiroki, ish joyida o‘qitish, kompetensiyalarga asoslangan baholash va uzluksiz sifat monitoringi** o‘zaro bog‘liq holda qo‘llanilganda samarali natija berishini ko‘rsatadi. Keyingi boblarda mazkur tahlil natijalari asosida asosiy xulosalar va amaliy takliflar bayon etiladi.

IV. ASOSIY XULOSALAR VA TIZIMLI MUAMMOLAR

O‘qituvchilar so‘rovnomasi natijalariga ko‘ra, texnikumlarda kasbiy tayyorgarlikni tashkil etish sharoitlari umumiy jihatdan ijobiy baholandi.

Xususan, respondentlarning **78,6 foizi** o‘quv dasturlari va materiallarini mehnat bozori talablariga mos, **74 foizi** dual ta’lim sharoitlarini yetarli, **68,2 foizi** esa ish beruvchilar bilan hamkorlikni ijobiy deb baholadi.

Biroq xorijiy ta’lim dasturlari faol qo‘llanilayotganini bildirgan pedagoglar ulushi **45 foizni** tashkil etgani xalqaro ta’lim elementlarini kengaytirishga ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatdi.

Pedagoglar texnikumlar faoliyatini yaxshilashning ustuvor yo‘nalishlari sifatida **moddiy-texnik bazani yangilashni 37,7 foiz**, **ish haqi va rag‘batlantirishni oshirishni 36,4 foiz** hamda **o‘quv dasturlarini zamonaviylashtirishni 20,4 foiz** bilan qayd etdi.

Ushbu natijalar ta’lim mazmunini yangilashni zarur resurslar va pedagoglarni qo‘llab-quvvatlash choralari bilan birgalikda amalga oshirish muhimligini ko‘rsatdi.

Birinchi muammo – amaliy tayyorgarlik va uni baholash o‘rtasidagi uzviylikning yetarli emasligi.

Pedagoglarning **57,6 foizi** amaliy imtihon tizimi mavjudligini bildirgan bo‘lsa, **38,6 foizi** baholash faqat nazariy test va og‘zaki so‘rov orqali amalga oshirilishini qayd etdi.

Bu ayrim texnikumlarda o‘quvchining kasbiy vazifani mustaqil bajarish qobiliyatini baholashga ko‘proq e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatdi.

Ikkinchi muammo – moddiy-texnik ta’minotning notekisligi.

Respondentlarning **22,6 foizi** ta’minotni qisman, **8,7 foizi** esa yetarli emas yoki mavjud emas deb baholadi. Zarur jihozlar va sarf materiallarining yetishmasligi amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish imkoniyatini cheklashi mumkinligi sababli, resurslarni har bir kasb va muassasaning ehtiyojiga qarab taqsimlash zarurati yuzaga keldi.

Uchinchi muammo – korxonalar bilan hamkorlikni amaliy natijalarga yo‘naltirish ehtiyoji.

Hamkorlikni ijobiy baholaganlar ulushi **68,2 foizni** tashkil etgan bo‘lsa-da, pedagoglarning ochiq javoblarida amaliy ta’limni kuchaytirish va korxonalar bilan aloqalarni kengaytirish takliflari takrorlandi.

Bu hamkorlikni o‘quvchiga aniq kasbiy vazifalarni bajartirish, malakali ustoz biriktirish va egallangan ko‘nikmalarni baholash bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatdi.

To‘rtinchi muammo – o‘quv dasturlarini ishlab chiqarishdagi o‘zgarishlarga muntazam moslashtirish ehtiyoji.

Dasturlarni zamonaviylashtirish pedagoglarning **20,4 foizi** tomonidan ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi. Shu bois dasturlarni yangilashda ish beruvchilar fikri, amaliyot natijalari va zamonaviy texnologiyalar talablarini hisobga olish muhimligi aniqlandi.

Beshinchi muammo – pedagoglarning ma’muriy yuklamasi va rag‘batlantirishga ehtiyoji.

Respondentlarning **20,1 foizi** ortiqcha hujjatbozlik va hisobotlar ko‘pligini, **4 foizi** ish yuklamasi juda yuqori ekanini bildirdi.

Rag‘batlantirishni oshirish ham ustuvor talablar qatorida qayd etilgani pedagoglarning amaliy mashg‘ulotlarga tayyorlanishi va kasbiy rivojlanishi uchun qulay mehnat sharoitlarini yaratish zarurligini ko‘rsatdi.

Oltinchi muammo – xalqaro ta’lim tajribasini qo‘llashning cheklanganligi.

Xorijiy dasturlar faol qo‘llanilayotganini bildirganlar ulushi **45 foiz** bo‘lgani xalqaro mazmun va metodikalarni kengaytirish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatdi. Buning uchun pedagoglar tayyorgarligi, o‘quv resurslari va amaliy mashg‘ulotlar sharoitlarini birgalikda rivojlantirish talab etiladi.

Umuman olganda, natijalar texnikumlarda **amaliy tayyorgarlik, resurs ta’minoti, korxonalar bilan hamkorlik va pedagoglarni qo‘llab-quvvatlashni o‘zaro bog‘liq holda takomillashtirish** zarurligini ko‘rsatdi.

Choralarni har bir muassasaning aniq ehtiyojlariga asoslash va natijalarni o‘quvchilarning kasbiy ko‘nikmalari hamda bitiruvchilar bandligi orqali baholash maqsadga muvofiq.

V. AMALIY TAKLIF VA TAVSIYALAR

Quyidagi takliflar so‘rovnoma natijalari va xalqaro amaliyotning mazmuniy tahlili asosida ishlab chiqildi. Ularni amalga oshirish hajmi va ketma-ketligi birlamchi ma’lumotlarni tekshirish hamda texnikumlarning aniq ehtiyojlarini baholash natijalariga ko‘ra belgilanadi.

1. Amaliy ta’lim va dual tayyorgarlikni kasbiy kompetensiyalar bilan bog‘lash

Texnikumlar o‘rtasidagi tafovutlar **amaliy tayyorgarlikni har bir kasb va dastur bo‘yicha tekshirish** zaruratini ko‘rsatadi. Nazariy ta’lim bilan ishlab chiqarish amaliyotining bog‘liqligi, o‘quvchilarning bajaradigan ish topshiriqlari va amaliyotdagi rahbarlik sifati birgalikda baholanishi kerak.

Har bir kasb bo‘yicha **ish beruvchilar bilan kelishilgan amaliy kompetensiyalar ro‘yxatini belgilash** va dual tayyorgarlikni shu ro‘yxat asosida tashkil etish tavsiya etiladi.

Germaniyaning korxona va kasb maktabi hamkorligiga, Singapurning ish joyida o‘qitishni institutdagi ta’lim bilan birlashtirishiga asoslangan yondashuvlar mazkur taklif uchun amaliy asos bo‘la oladi.

Ushbu tajribalar asosida har bir kasb bo‘yicha **amaliy ko‘nikmalar xaritasini ishlab chiqish**, qaysi ko‘nikma texnikumda, korxonada yoki simulyatorda o‘rgatilishini belgilash, **har bir o‘quvchiga korxonadan ustoz biriktirish** hamda bajarilgan ishlarni **elektron portfolioda qayd etish** lozim. Amaliyot yakunida o‘quvchining har bir kompetensiyasi pedagog va ish beruvchi tomonidan birgalikda baholanishi kerak.

Natija amaliyotda qatnashganlik bilan bir qatorda **o‘quvchining belgilangan ish vazifalarini bajarishi orqali baholanadi**. Ish beruvchi va pedagogning birgalikdagi bahosi o‘qishni tugatgunga qadar yetishmayotgan ko‘nikmalarni aniqlash imkonini beradi.

Xorijiy tajriba bilan bog‘liqlik: Germaniyada palatalar amaliyot bazasi va ustozlar yaroqliligini tekshiradi, Singapur ITE dasturida esa ish joyidagi o‘qitish institutdagi ta’lim bilan muvofiqlashtiriladi. Shu bois texnikum–korxona shartnomasida amaliy ko‘nikmalar, ustoz, xavfsizlik va baholash tartibi alohida bandlar bilan belgilanishi lozim[18].

[18] BIBB: Competent Bodies in Germany
URL: https://www.bibb.de/en/146199.php (20.06.2026)
ITE. Admission for Work-Study Diploma

2. Laboratoriya va ustaxonalarni ehtiyojlar asosida yangilash

Raqamli texnologiyalar yo‘nalishidagi **89 ballik** nisbatan past ko‘rsatkich hamda tashkilotlar kesimidagi tafovutlar moddiy-texnik imkoniyatlarni batafsil o‘rganish uchun asosdir. Jihozlarning yetarliligi haqidagi xulosa ularning real holati va foydalanish darajasini tekshirishga tayanishi kerak.

Laboratoriya va ustaxonalarni o‘qitilayotgan kasblar, o‘quvchilar soni, mavjud uskunalar holati va aniqlangan ehtiyojlar asosida **manzilli yangilash** tavsiya etiladi.

Shveysariyaning tarmoq o‘quv markazlari tajribasi ayrim kasblar bo‘yicha maxsus va qimmat jihozlardan birgalikda foydalanish imkoniyatini ko‘rsatadi. Ushbu mexanizm hududlardagi ilg‘or kasbiy mahorat texnikumlari faoliyatini tashkil etishda qo‘llanishi mumkin[19].

Ushbu tajribalar asosida har bir texnikumda jihozlar, internet, dasturiy ta’minot, xomashyo va xavfsizlik holatini **raqamli xatlovdan o‘tkazish** lozim.

Har bir kasb bo‘yicha **minimal jihozlash standarti** belgilanishi, ishlamaydigan va eskirgan uskunalar alohida ro‘yxatga olinishi kerak. Qimmat uskunalar uchun bir nechta texnikum va korxona foydalanadigan **ilg‘or kasbiy mahorat texnikumlarda** sharoit yaratish, jihoz xaridi bilan birga pedagoglarni tayyorlash, texnik xizmat va sarf materiallari xarajatlarini ham rejalashtirish zarur.

Chora-tadbirlar samarasi ish holatidagi jihozlar ulushi, ularning mashg‘ulotlarda ishlatilishi va amaliy ko‘nikmalarni egallayotgan o‘quvchilar qamrovi orqali baholanishi tavsiya etiladi.

Xorijiy tajriba bilan bog‘liqlik: Shveysariyada tarmoq o‘quv markazlari korxona va kasb maktabidagi mashg‘ulotlarni to‘ldiradi. Hududiy umumiy ustaxona taklifi jihozlarni shunchaki markazlashtirish emas, kasblar bo‘yicha o‘qitish vazifalarini taqsimlashga asoslanishi kerak.

3. Ish beruvchilarning ta’lim jarayonidagi ishtirokini kengaytirish

Kasbiy tayyorgarlikni mehnat bozori bilan bog‘lash uchun hamkorlik shartnomalarining mavjudligi bilan birga **ish beruvchilarning amaldagi ishtiroki ham o‘rganilishi lozim**.

URL:https://www.ite.edu.sg/current-full-time-students/progression/work-study-diploma/admission-for-work-study-diploma/ (22.06.2026)

[19] Swiss Confederation:
URL: https://www.kmu.admin.ch/en/training-apprentices (22.06.2026)

Bunda o‘quv dasturlarini yangilash, amaliyotga rahbarlik va bitiruvchilarning kompetensiyalarini baholashdagi hissasi hisobga olinadi.

Shu munosabat bilan har bir ustuvor kasb va sohaviy yo‘nalish bo‘yicha **ish beruvchilar kengashlarini tuzish** hamda ularning **vazifalari va javobgarligini aniq belgilash** maqsadga muvofiq.

Germaniya va Shveysariyada ijtimoiy sheriklar hamda kasbiy tashkilotlarning kasbiy ta’limdagi ishtiroki vazifalar bo‘yicha belgilangan. Ushbu tajriba texnikum va korxona o‘rtasidagi mas’uliyatni aniq taqsimlash uchun foydalanilishi mumkin.

Ushbu tajribalar asosida ish beruvchilar kengashi har yili **mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb va ko‘nikmalarni belgilashi**, o‘quv dasturlarini ko‘rib chiqishi, amaliyot joyi va ustozlar ajratishi hamda **yakuniy amaliy imtihonlarda ishtirok etishi** lozim.

Hamkorlik shartnomalarida amaliyot o‘rinlari soni, uskuna va xomashyodan foydalanish, ustozning vazifasi, o‘quvchining ish topshiriqlari, mehnat xavfsizligi va bitiruvchini ishga qabul qilish imkoniyati aniq ko‘rsatilishi kerak.

Hamkorlik samarasi yangilangan o‘quv modullari, sifatli amaliyot o‘rinlari, ustozlar ishtiroki va ish beruvchilar qatnashgan amaliy baholashlar orqali kuzatiladi. **Bitiruvchilarning mutaxassisligi bo‘yicha bandligi yakuniy natija ko‘rsatkichlaridan biri** sifatida olinadi.

Xorijiy tajriba bilan bog‘liqlik: Finlandiyada ish joyidagi ustoz va korxona fikri alohida yig‘ilib, ta’lim tashkilotining hamkorlik sifati baholanadi. Shu asosda ish beruvchilar kengashining yig‘ilishlar soni emas, o‘quv modullari va amaliyot sharoitida yuz bergan aniq o‘zgarishlar monitoring qilinishi tavsiya etiladi[20].

4. Sohalar bo‘yicha alohida rivojlantirish choralarini belgilash

Tibbiyot va farmatsevtikadagi **99 ball** hamda raqamli texnologiyalardagi **89 ball** sohaviy natijalar turlicha ekanini ko‘rsatadi. Keltirilgan tashkilotlarda salbiy baholar maksimumi tibbiyotda **7,9 foiz**, pedagogika va gumanitar yo‘nalishlarda **21,4 foiz**, iqtisodiyot va xizmatlarda **30,1 foiz**, ko‘p tarmoqli texnikumlarda **37,0 foiz**ga yetgan.

[20] Finnish national agency for education:
URL: https://www.oph.fi/en/development/feedback-working-life (22.06.2026)

Har bir sohaviy guruhning aniqlangan muammosi va kasbiy vazifalariga mos rivojlantirish dasturini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Finlandiyaning kompetensiyaga asoslangan kasbiy ta’lim yondashuvi baholashni muayyan kasbda talab qilinadigan koʻnikmalar bilan bogʻlash imkonini beradi[21].

Ushbu tajribalar asosida **axborot texnologiyalari texnikumlarida** yuqori tezlikdagi internet, zamonaviy dasturiy ta’minot, kiberxavfsizlik, sun’iy intellekt va sohaviy sertifikatlashga e’tiborni kuchaytirish lozim.

Tibbiyot texnikumlarida simulyatsiya mashgʻulotlari, bemor xavfsizligi va klinik amaliyot sifati baholanishi kerak. **Iqtisodiyot va xizmat koʻrsatish sohasida** real mijozlarga xizmat koʻrsatish, elektron savdo va tadbirkorlik loyihalari koʻpaytirilishi zarur.

Koʻp tarmoqli texnikumlarda esa har bir yoʻnalish uchun jihoz, pedagog, amaliyot bazasi va ish beruvchi alohida rejalashtirilishi lozim.

Dasturlar samarasi tegishli kasb boʻyicha amaliy baholash, resurslardan foydalanish, oʻquvchilar qamrovi va ish beruvchilar fikri asosida aniqlanadi. Bu mezonlar sohalar uchun bir xil nomdagi, lekin mazmuni farqli koʻrsatkichlarni mexanik taqqoslashning oldini oladi.

5. Pedagoglarning korxonalardagi amaliy stajirovkalarini rivojlantirish

Pedagoglarning ishlab chiqarishda qoʻllanilayotgan uskunalar, dasturlar va texnologiyalar bilan ishlash tajribasi amaliy ta’lim sifatiga ta’sir qiluvchi muhim omildir. Soʻrovnoma natijalari bilan birga ularning mavjud tajribasi va malaka yangilash ehtiyojini alohida baholash lozim.

Maxsus fan pedagoglarining korxonalardagi amaliy stajirovkalarini uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimiga kiritish tavsiya etiladi. Davriylik kasbdagi texnologik oʻzgarishlar, pedagogning ehtiyoji va korxona imkoniyatlariga muvofiq belgilanadi.

Dastlabki tashkiliy mezon sifatida har bir maxsus fan pedagogini **kamida uch yilda bir marta** tegishli korxonada amaliy stajirovkadan oʻtkazish taklif etiladi. Bu davriylik **amaldagi majburiy talab sifatida emas, rivojlantirish taklifi sifatida** koʻriladi.

[21] Finnish national agency for education:
URL: https://www.oph.fi/en/development/feedback-working-life (22.06.2026)

Stajirovka yakunida pedagog kamida bitta dars moduli, laboratoriya ishi yoki amaliy topshiriqni yangilashi, materialni metodik jamg‘armaga joylashtirishi va hamkasblari bilan tajriba almashishi maqsadga muvofiq.

Stajirovkaning samarasi olingan sertifikat bilangina cheklanmay, yangilangan mashg‘ulotlar va o‘quvchilarning amaliy natijalari orqali baholanadi. Tasdiqlangan natijalarni pedagog faoliyatini rag‘batlantirishda hisobga olish tavsiya etiladi.

Xorijiy tajriba bilan bog‘liqlik: Germaniyada korxona ustozining kasbiy va pedagogik tayyorgarligi sifat kafolatining bir qismi hisoblanadi. Pedagoglar stajirovkasida ham korxonada bo‘lgan kunlar sonidan tashqari o‘zlashtirilgan texnologiya va o‘quv mashg‘ulotiga joriy etilgan amaliy topshiriqlar qayd etilishi lozim[22].

6. Karyera xizmatlari va bitiruvchilar bandligini kuzatishni kuchaytirish

So‘rovnomadagi **qoniqish ko‘rsatkichlari bitiruvchining haqiqiy bandligini to‘liq aks ettirmaydi**. Ta’limdan mehnat bozoriga o‘tishni baholash uchun ish topish muddati, egallangan kasb bilan ishning muvofiqligi va ish beruvchi fikri haqida qo‘shimcha ma’lumot zarur.

Shu munosabat bilan har bir texnikumda **karyera xizmatlari faoliyatini bitiruvchilarning haqiqiy bandlik natijalari bilan bog‘lash** hamda ularni muntazam kuzatib borish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

Ushbu tajribalar asosida o‘quvchilar uchun rezyume tayyorlash, ish suhbatidan o‘tish, mehnat huquqi, tadbirkorlik va ish qidirish ko‘nikmalari bo‘yicha qisqa mashg‘ulotlarni joriy etish lozim.

Amaliyot joylari va bo‘sh ish o‘rinlari yagona raqamli ro‘yxatda jamlanishi, bitiruvchilarning **6** va **12** oydan keyingi bandligi, ish topish muddati, ishining mutaxassisligiga mosligi va ish beruvchi fikri o‘rganilishi kerak. Ish topa olmagan bitiruvchilarga qisqa muddatli qayta tayyorlash yoki qo‘shimcha malaka modullari taklif etilishi zarur.

Yig‘ilgan natijalar qabul parametrlarini muhokama qilish, o‘quv dasturlarini yangilash va ish topishda qiynalayotgan bitiruvchilarga ko‘maklashish uchun foydalaniladi. Ma’lumotlarning qamrovi va javob qaytarish darajasi har bir kuzatuvda ko‘rsatilishi lozim.

---

[22] Federal Institute for Vocational Education and Training
URL: https://www.bibb.de/en/77203.php (22.06.2026)

Xorijiy tajriba bilan bog‘liqlik: Finlandiyada shaxsiy kompetensiyani rivojlantirish rejasiga karyera maqsadi ham kiritiladi. Texnikumda karyera maslahatini faqat bitiruv bosqichida emas, o‘qishning boshidan boshlash va uning natijasini amaliyot hamda bandlik ma’lumotlari bilan bog‘lash tavsiya etiladi[23].

[23]Finnish national agency for education
URL: https://www.oph.fi/en/education-and-qualifications/guidance-and-counselling-vocational-education-and-training (22.06.2026)

VI. YAKUNIY XULOSA

O‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari texnikumlarda ta’lim sifati va ta’lim muhiti umumiy jihatdan ijobiy baholanganini ko‘rsatdi.

Xususan, pedagoglar faoliyati, o‘quv resurslari va kasbiy tayyorgarlik sharoitlari bo‘yicha ijobiy baholar ustunlik qildi. Shu bilan birga, hududlar, sohalar va alohida texnikumlar o‘rtasidagi tafovutlar ta’lim sifatini oshirishda manzilli yondashuv zarurligini ko‘rsatdi.

Birinchidan, nazariy ta’lim, amaliy mashg‘ulotlar va korxona amaliyoti o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytirish zarur. Buning uchun har bir kasb bo‘yicha o‘zlashtiriladigan kompetensiyalarni belgilash, o‘quvchiga malakali ustoz biriktirish va amaliy ko‘nikmalarni real ish topshiriqlari orqali baholash lozim.

Ikkinchidan, laboratoriya va ustaxonalarning jihozlanishi, sarf materiallari hamda raqamli vositalar bilan ta’minlanganlik barcha texnikumlarda bir xil emasligi aniqlandi. Shu bois moddiy-texnik bazani har bir ta’lim dasturining ehtiyojiga muvofiq yangilash, jihozlarning ishlash holati va mashg‘ulotlarda foydalanilishini hisobga olish zarur.

Uchinchidan, o‘quv dasturlarini mehnat bozori va ishlab chiqarishdagi texnologik o‘zgarishlarga muntazam moslashtirish talab etiladi. Bu jarayonda ish beruvchilarning dasturlarni yangilash, amaliyotni tashkil etish va yakuniy baholashdagi ishtirokini kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, pedagoglarning korxonalardagi amaliy stajirovkalari va xalqaro malaka oshirish imkoniyatlarini rivojlantirish, mehnatini rag‘batlantirish hamda ortiqcha hisobot yuklamalarini qisqartirish zarur. Kasbiy rivojlanish natijalarini yangilangan dars modullari va amaliy topshiriqlar bilan bog‘lash ta’lim mazmunini boyitishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, o‘quvchilarning individual tayyorgarligi va kasbiy maqsadlarini hisobga olgan holda karyera maslahatini o‘qishning dastlabki bosqichidan tashkil etish lozim. Bitiruvchilarning ish topish muddati, mutaxassisligi bo‘yicha bandligi va ish beruvchilar bahosini kuzatish ta’lim dasturlarini takomillashtirish uchun asos yaratadi.

Umuman olganda, texnikumlarda erishilgan ijobiy natijalarni mustahkamlash uchun amaliy ta’lim, resurs ta’minoti, ish beruvchilar bilan hamkorlik va pedagoglarning kasbiy rivojlanishini o‘zaro bog‘liq holda takomillashtirish zarur. So‘rovnoma natijalarini amaliy kompetensiyalar va bitiruvchilar bandligi bilan birgalikda tahlil qilish boshqaruv qarorlarining natijadorligini oshirishga xizmat qiladi.

VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi PF–158-son “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

URL: https://lex.uz/uz/docs/-7166588

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF–76-son “Ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

URL: https://lex.uz/docs/7513052

II. Rasmiy ma’lumot va tasnif manbalari

3. OECD. Building Future-Ready Vocational Education and Training Systems. OECD Reviews of Vocational Education and Training. Paris: OECD Publishing, 2023. DOI: 10.1787/28551a79-en.

URL: https://www.oecd.org/en/publications/building-future-ready-vocational-education-and-training-systems_28551a79-en.html

4. UNESCO. Strategy for Technical and Vocational Education and Training 2022–2029.

URL: https://www.unesco.org/en/articles/unesco-strategy-technical-and-vocational-education-and-training-adopted-executive-board

5. International Labour Organization (ILO). Quality Apprenticeships Recommendation, 2023 (No. 208): Guide for Policymakers. Geneva: ILO, 2024.

URL: https://www.ilo.org/sites/default/files/2024-12/1684_SKILLS_Quality_Apprenticeships_WEB.pdf

6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Butunjahon ta’lim forumi: muhim kelishuvlarga erishildi. 2025-yil 22-may.

URL: https://gov.uz/oz/edu/news/view/56069

III. Xalqaro metodologik va qiyosiy manbalar

7. Federal Institute for Vocational Education and Training (BIBB). The dual system.

URL: https://www.bibb.de/en/77203.php

8. Pearson. Centre Guide to Quality Assurance and International Standards Verification 2025–26.

URL: https://qualifications.pearson.com/content/dam/pdf/btec-international-level-3/QADocs/centre-guide-to-quality-assurance-and-international-standards-verification-2025-26.pdf

9. State Secretariat for Education, Research and Innovation (SERI). Vocational and Professional Education and Training in Switzerland: Facts and Figures 2026. Shveysariya.

URL: https://www.sbfi.admin.ch/dam/en/sd-web/PkLymKJM-WMt/BBCH_2026_EN_web.pdf

10. State Secretariat for Economic Affairs (SECO), SME Portal. Training apprentices.

URL: https://www.kmu.admin.ch/en/training-apprentices

11. Finnish National Agency for Education (EDUFI). Vocational education and training.

URL: https://www.oph.fi/en/education-system/vocational-education-and-training

12. Institute of Technical Education (ITE). Admission for Work-Study Diploma. Singapur.

URL: https://www.ite.edu.sg/current-full-time-students/progression/work-study-diploma/admission-for-work-study-diploma/

13. Australian Skills Quality Authority (ASQA). About the Standards.

URL: https://www.asqa.gov.au/for-providers/standards-for-RTOs/about-the-standards

14. Pearson. Pearson and Uzbekistan Ministry of Higher Education, Science and Innovation Partner in Major Education Reform Push.

URL: https://plc.pearson.com/en-GB/news-and-insights/news/pearson-and-uzbekistan-ministry-higher-education-science-and-innovation

***Muallif**: Jakbarov Sardor*
***Lavozimi:** Post-akkreditatsiya monitoringini yuritish guruhi rahbari*

***Muallif**: Ismailov Nuriddin*
***Lavozimi**: Post-akkreditatsiya monitoringini yuritish guruhi bosh inspektori*

NATIONAL QUALITY ASSURANCE AGENCY FOR EDUCATION

NQAAE

UNDER THE ADMINISTRATION OF THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

+998 55 505 30 30

info@nqaae.uz
www.nqaae.uz

@nqaaeuz

@nqaaeuzbot